

Uchinchi bo'lim (davomi)

Toj Ko'ringan Kecha

Azonga yaqin tush ko'ribman. Tushimda hov bir galgidek jajji pichoqchamni yo'qotib qo'yganmishman-da, piq-piq yig'layverib shishib ketganmishman. Tepamda cho'kkalab o'tirgan birov esa, ovutmoqchi bo'lib, nuqul boshimni silaydi:

"Qo'y, toychoq, katta yigit bo'p qolding. Men senga rostakamidan olib kelaman endi: bandi sadafli, yuziga oy-u yulduzlar tushirilganidan; qiniga gullar solib tikilganidan. Bo'ldi qilaqol, pakana pari", dermish. O'zi tog'amlarga o'xsharmish-u, ovozi... Sultonmurod akamniki emish.

Voy, Sultonmurod akam kepti, akajonim qaytipti, deb sevinib turib uyg'onib ketdim. Tong otibdi. Chug'ur-chug'uri olamni tutib, tomimiz ustidan zag'chalar galasi o'tib boryapti ekan. Bosh tomonimda oyim qiblaga qarab o'tiribdilar. Namozlari tutab, duo qilib o'tiribdilar. Uzoq duo qildilar. Har galgidek, ko'zlarida yosh bo'lsa kerak. Nelarni so'rayotirlar ekan?..

Zag'chalar ham o'tib bitdilar.

Oyim qo'llarini yuzlariga tortib, o'rinaridan turdilar. Endi joynamozni qoziqqa ilib, eshikni ochgan joylarida Izza tomondan ayol kishining o'kdek ovozi uyga yorib kirdi:

- Voydo-od, musulmonlar bormi-se-ez! Ot o'g'rilarining dastidan dod!

Men tura hovliga otildim. Ortimdan oyim chaqirib qoldilar:

- Hoy bola, bola deyma! Qayt, yuzni yuvmasdan qayoqqa borasan?

Noiloj qaytib, apil-tapil yuvina boshladim. Oyim endi nasihat ohangida koyiy boshladilar:

- Odam degan turadi, yuz-qo'lini yuvadi, poklanib, so'ng birovga ko'rinadi-da. Chopaveradimi? Hamma kasofat nimadan chiqadi? Shu yuvisizlikdan chiqadi! Birovning molini o'marsayam, chopasan, otini o'g'irlasayam, chopasan. Yaxshimas, katta yigit bo'p qolding...

Oyim meni janjalga yaqin yo'latmaganlari bilan chambaraklardagi sutni suzib bo'lgunlaricha, o'sha janjalning o'zi eshigimizdan kirib keldi. Pak-pakanagina bukri xotin ostonamizdan o'tar-o'tmas, oyimlarni ko'riboq uvvos solib, yig'lab yubordi:

- Voy, Salomxo-on, uyim kuyde-e, ichxonamga o't tushte-e! Salimbek akayizga nima deyma-an, nima javob qilama-an?

Oyim yig'loqi ayollarni yoqtirmas edilar, jerkib tashladilar:

- Yoqangizni yirtguncha, nima bo'lganini ayting! Qanaqa yig'loqi xotinsiz!

Xotin o'pkasini bosishga urinib, yuz-ko'zlariga unniqib ketgan ko'k ro'molini bosdi. Men uni bir-ikki ko'rganman-u, kimligini bilolmay turibman. U kuyib ketganidan azbaroyi qorayib ketipti. Shu ko'yi hiqillab, ancha o'tirib qoldi va zo'rg'a o'ziga kelib:

- Anuv ordona Barzanni-da, Salomxon, qayoqdanam opkelgan ekanlar?.. O'zlari bor bo'lsalaram, mayli edi.

- Yana nima bo'пти Barzanlariga?

- O'g'irlab ketishibde, Salomxon, o'g'irlab...

- Baloginaga yo'liqsin, yana boshlashibdimi?!

- Jon Salomxon, rahmiyiz kelsin, men yarimtaga, Sultonmurodga o'ziyiz ayting, yordam berse-en.

Oyim ro'mollarini to'g'iray turib, sergaklandilar.

- Sultonmurod?.. Sultonmurod qoptimi?.. U shu yerda bo'lsa, Kattabog'ga birov oralay olarmidi?

Bukri xotin alam bilan bosh chayqadi:

- Bilmasam, Salomxon, bilmasam! U shu atrofda, deyishyapti-ku. Hukumatgayam chap berganmish-ku.

Men ichimdan oftob chiqqanday, shoshib qoldim. Xunukkina, bukrigina xotin... ko'zimga biram issiq ko'rinib, yaqin bordim.

- Qaerdamish, xolajon?

- Men bilmasam, bolaginam. Birov Yakkabog'ning Izzasini aytadi, birov tegirmonning orqasini... shu yerdamish.

Oyim yalt etib menga qaradilar.

- Rostan-a?

- Balkim, - dedim men ham ishonib. Uni qarang, oyim ham ishondilar shu gapga.

- Shu atrofda bo'lsa, ana, Maqsdxo'jam topib aytadi. Siz xotirjam bo'lavering, yerning tagidan bo'lsayam topdirib beradi.

Javrlantirib qo'ymaydi sizni. Ayting-ayting, chap bergan bo'lsin...

Oyimning shu so'zlari bo'ldiyu Xudo berdi menga. Bo'sh qoldim deguncha yo Yakkabog'ning Izzasiga, yo tegirmonboshiga chopaman. Kechalari Soli ikkimiz Yakkabog' bilan tegirmon o'rtasida izg'iganimiz-izg'igan, akamning yigitlariga duch kelarmikanmiz, deb... Qani birov to'sib, qayt, otilasan yo o'ronni ayt, deya qolsa.

Uchinchi kecha Tegirmonko'chadan chiqavurishda, dala o'rtasidagi Qoravultepada miq etmay, yo'l qarab o'tirib edik. Yaqindagina shom tushgan, endi osmonu yer birday qora duxobaga o'ralib, uzoq-uzoqlardan yolg'izdan-yolg'iz, ojizdan-ojiz chiroqlar miltirab qo'yardi. Yaxshilab tikilmasa, ilg'asham qiyin. Tepamizdagi yulduzlar ham shunday: yo tun qorong'uligi shunchalar qalin, yo yulduzlarning o'zi qochib, uzoqlashib ketgan. Faqat yangi tuqqan oy shunaqa tiniq, shunaqa jilvalanib turibdiki, qo'sha-qo'sha bo'lib ketyapti qaraganim sari. Tiq etgan tovushga quloq berib o'tiribmiz.

Bir mahal Izzaning u betidan (arava yo'ldanmikan?) g'ijirlagan bir qur tovushlar juda yaqindaga o'xshab... kelaboshladiyu vujudimiz quloq bo'lib, qotib qoldik.

Chindanam o'sha yoqdan yolg'iz arava tushib kelar, g'ijirlab-qatirlashidan Qo'qon aravaga o'xshar edi.

- Uchdik, - dedi Soli hovliqib.

- Shoshma, o'shalarmi, boshqalarmi?.. - dedim men ikkilanib.

- O'shalardan bo'lak kim bo'lardi shu bemahalda, ketdik-ketik, - deb qistadi u.

Shu mahal o'sha yoqdan ayol kishining qo'ng'irokday kulgisi yangrab, turgan yerimizda turib qola qoldik.

- Iy, g'alati-ku, - dedi Soli ham.

- Jin... chaqiryapti shekilli bizni... - dedim astoydil cho'chib.

Lekin dam o'tmay haligi kulgiga... bir g'alati yor-yor ovozlari ulanib ketdi:

B B B B Bo'zlama, jonim, bo'zlama,

B B B B Uyat bo'lar, yor-yor-ey,

B B B B Qarg'ama mani, qarg'ama,

B B B B Niyat bo'lar, yor-yor-ey.

- Iy, kelin uzatib kelayotirlarmi? - dedim yuragim xunuk orziqib.

- Shunaqa shekilli, - dedi Soli ham.

B B B B Kim aytganin topibdi-yo,
B B B B Kim deganin olibdi-yo,
B B B B Esizgina qizgina,
B B B B O'zini o'tlarga otibdi-yo.

- He, esim qursin, - deb o'zi qolib, meni turti Soli. - Axir, Haybat akam uylanyapti-ku Bog'ko'chadan...

Ular hamon kuylar edilar:

B B B B Bo'zlama, jonim, bo'zlama,
B B B B Uyat bo'lar, yor-yor-ey.
B B B B Qarg'ama mani, qarg'ama
B B B B Niyat bo'lar, yor-yor-ey.

Boshim aylanib ketdi. Nazarimda boshimga qo'shilib, yonimizdagi Qorovultepa, uning qo'sh teragi, hamma narsa chir aylanar edi.

- Bugun to'y ekanmi? - dedim yuragim muzlab. Ovozim o'zimga ham begona tuyulib ketdi.

Oh Marg'u kennoyi, Marg'u kennoyi, akamni qistaganiz, qistab so'zini olganiz nimasi ediyu bu qilgan ishiz nimasi? Nimaga men buning guvohi bo'lib turibman? Nimaga yer yorilmayapti? Nimaga mening ko'zim ko'r, qulog'im kar bo'lmayapti?

Biz o'sha yoqqa chopib boryapmizmi yo hamon o'sha joyda turibmizmi, - anglab yetolmasdim. Shu vaqt Soli yelkamga turtkilab, bilagimdan tortqilab, holi-jonimga qo'ymay qo'limni silkilar edi:

- Maqsud, uni qara! Uni qara, Maqsud!

Ajabo, Izzaning bu tomonida ham bir Qo'qon arava turibdi. Qorong'ida elas-elas ko'zga tashlanadi. tevaragida bir odam uymalashib yuribdi. Tepadan tushib kelayotgan begona otni sezib, Izzaning berigi betidagisi pishqirib-pishqirib qo'yadi.

Shu mahal yuqorida ot kishnab yubordiyu yor-yor ohanglari bilan quralashib ketib, g'alati jo'rlik paydo qildi.

Aravakash ot jilovini keskin tortdi.

- Dr-r, jonivor!..

- Qo'rqmanglar-ov qudalar, bizlarmiz, biz kutib olyapmiz! Ko'prik buzuq ekan, - degan ovoz yangradi berigi qirg'okdan. Keyin yaqinidagi kimgadir murojaat etib, dedi: - Tolip, tayyormisan? Bittalab o'tkazib qo'yasanda endi yangalaringni.

- Xo'p, aka, jonim bilan, - deb javob qildi soy bo'yidagi qora.

- Hasanboy, senmisan? - dedi "kelin tushdi"ning aravakashi.

- Menman, mushkullaringni oson qila qolaylik, deb keldik-da, oshna.

- Unday bo'lsa, maylin-maylin, - deb narigi aravakash o'zini pastga oldi va ayollarni shoshirdi: - Tusha qolinglar, yangajonlar, qudaaravayam taxt turgan ekan.

Ayollar vijir-vijir bilan: "Voy, o'laqolay, baland-ku, qanday tushdik"lab qolishdi. Kim paranjisini olib, kim olmay-la sakradi. Kim kimningdir qo'ltig'idan olib, qiyqirishib kulishdi.

So'ng "Kelinposhsha, kela qoling"lab, uniyam ko'tarib tushirib qo'yishdi-da, tugunu sarupolarga andarmon bo'lib, bittalab uzata boshlashdi.

Izza suvi tegirmon tagida shovullab, qo'shig'ini aytib yotibdi. Buzuq ko'prik tomondan kelayotgan har bitta ovoz jaranglab taraladi soylikka. Tugunlardan keyin yangalar o'ta boshlashdi. Bittasi: "Voy o'lmasam, muncha qorong'u, muncha vahmali" desa, boshqasi:

"Hoy, meni ushlanglar!" deb ayyuhannos soladi. So'ngra birdan:

- Kelin qani, kelin qani?! - degan ovoz yangradi.

Birpasda vahima qo'pdi:

- Hoy, kelinposhsha, qanisiz? Qattasiz, Marg'ubaxon?

- Iqbolxon, qiziz qaerda qoldi, qayoqqa ketdi?

- Suv-puvga tushib ketmadimi, qaranglar, hoy, yaxshilar? - deb yalindi kimdir aravakashlarga.

- Hoy, Marg'ubaxon, qanisan, qayoqdasan, qizim? - deb zir qaqshardi onasi.

Erkaklar so'kinib, yugur-yugurga tushdilar. Kimdir tegirmon tepasiga chopdi.

- Hoy, Tolip, ko'zing qayoqda edi? Chop tepaga?! - deb baqirdi bu yoqdagi aravakash.

Narigi yoqdagisi esa... xotinlarni so'ka ketdi:

- O'takang yorilgurlar, endi kimmi uzatib borasanlar? O'zlaringnimi? Toplaring!

Xotinlar ham vag'ir-vug'ur bilan bir-birlarini ayblab ketishdi.

- Qudalarga nima deb javob qilamiz endi?..

Biz ham o'sha tomonga chopdik. Shu asnoda Tegirmon tepasidagi tolqatorning boshida bir ot kishnadi. Rosti, judayam chiroyli kishnab, shovullab yotgan soylikni jangillatib yubordi va kutilmaganda Izza yoqalab, yuqoriga chopib keta boshladi. U tuyoqlari bir chiroyli dupurlab, (ovozi - goh o'sha yoqdan, goh orqa tomonimizdan kelib) uzoqlashib borarkan, uchqur otligi shundayla bilinib turar edi. Bir mahal haligi ot... yo'q-yo'q, tamomila boshqa ot (Qang'li yo'lidan tushib kelayotir ekanmi) kishnab yubordiyu qiz opqochgan tuyqus Shiyponko'chaga burildi va tuyog'i zarang yo'lda jangil-lab, tarakday ketdi. Orqasidan bunisi ham chopdi.

Voh, orqadagisi kim bo'ldi? Sherigimi yo raqibi? Va birdan akamning: "o'sha so'zim so'z" deganini eslab, yuragim hapriqib ketdi. Qoyil! Shuncha odamning burni tagidan ilib ketdimi?! Mana buni yigit desa bo'ladi! Ikkinchi yoqdan yuragimning bir chekkasi g'ashlanib ham turibdi. Orqasidan kim chopdiykan? Opqochgan kim edi? Yo... boshqamikan?

Bu yoqda erkaklar haliyam baqir-chaqir bilan otni aravadan chiqarib ololmas, bir-birlarini shoshirgandan-shoshirar edilar. U yoqda esa, kelin opqochgan va orqasidan ergashgan otlar tobora uzoqlashib, butun atrof bezovta itlarning akillashi bilan almashinib boryapti.

Soli angrayib qolgan ekan, sekin turtidim:

- Ketdik, tomosha tamom.
- Yo'g'-e...
- Tamom, tutib olishsa, o'ldirishadi, - dedim mei, Soyning ichi bilan qorama-qora, xuddi jin quvlagandek yugurib ketdik. Soyma-soy, tepama-tepa oshib boryapmizu uzoqdan surnay ovozi goh balandlab, goh pastlab keladi. Tepaga chiqqanimizda yaqqolroq eshilib, pastga tushganimizda yo'qolib qoladi. Nima bo'lsa ekan? Yo to'yxonadan kelayotirmi? Katta tolning tagidan o'tganda kallam ishlab qoldi. Soliga aytmay ham Novvostepaning ustiga (o'ziyam bedapoyaning pastida kavsh qaytarib yotgan ulkan novvosga o'xshaydi), o'shaning ustiga yugurgilab chiqib ketdim. Changallarga talanib-tilinib chiqib borsam, kelinni go'shangaga chorlovchi ovoz naq Yakkabog'dan kelyapti. O'sha shomu xufton qorong'iligiga cho'mib, bog' hovlilari bir tekis: qorayib ulgurgan

2 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

tomondan faqat bir joy (to'yxonada mash'alalarni yoqib yuborishgan shekilli), o'sha qorong'ulik usti yorishib-shu'lalanib turibdi. Surnay nimaga "kelin keldi, yor-yor"ni cho'zib chalyapti - tushunolmayman. Kuta-kuta toqati toq bo'layozgan Musavoy surnaychi kelinaravani jadallata qolsinlar, deb chalyaptimi yo rostdanam kelinni yetkazib...

Bu yoqda hali baqir-chaqir tinmagan, birov tegirmonko'chada zor qaqshab, chaqirib yuribdi:

- Hoy Marg'iba-yu-uv? Tentakkinam-uv! Qaydasan-uv! - Hali u tepa ustidan, hali tegirmon boshidan ovoz beradi, bo'zlaydi: - Voy mani indamasim, voy mani birso'zligim! Nimalar qilib qo'yding-uv?! Sanginani shu umidlarminan boqqanmi edim-uv?

Peshonaginam qursin, voy mani sharmandalar qilding-uv!..

Bu o'sha "kashmiri" Iqbol otin - Marg'u kennoyimning onasi edi. Endi aqli kiribdimi, tentakkinam deb qolibdimi?!

Demak, kelin hali topilmagan, izillab izlashyapti.

Tavba, Marg'u kennoyimni Haybat akamning shunday burni tagidan ilib ketgan kim o'zi? Akammikan yo kennoyimning o'zi bu ishga jur'at etdimi? Balki Akmal o'risdir, men seni birovga tegdirib qo'ymayman, degan? Uning odamlaridir? Birdan boshqa voqeani, hov o'sha Cho'milishda Haybat akamning o'zi kennoyimning yo'lini to'sib chiqib aytganlari, o'tini ko'tarib olib, unamasang o'zingniyam mana shunday opqochib ketaman, deb ichgan qasamlari esimga tushib ketdi. Yo tavba! Taqdirni qarang, uning o'rniga birov otga o'ngarib opqochib ketib tursa. Bu nima? Xudoga ham xush kelmagan ekanmi o'sha ontlari?..

Izzaning narigi betida meni yo'qotib qo'ygan soli otimni atab hadeb chaqirar edi:

- Hoy, Maqsud, qanisan? Qaerda qolding?..

- Ho-zir!

Men unga ovoz berib, kunbotarga o'girildimu Kattabog' ustida - siyrak yulduzli osmonning bir chekkasida sap-sariq oltinday yonib-tovlanib turgan... x,aybatli tojni ko'rib, dong qoldim! O'tgan kuni undan pastda tilla shoxday bo'lib ko'ringan, kecha tilla qayiqchaga o'xshab turgan yangi oy... bugun tojday yonib-to'lqinlanib ko'zni olardi. Yo qudratingdan! Xuddi tojdor bir hukmdor bo'y rostlab, qarab turgani kabi! Lekin o'zidan burun toji ko'zni qamashtirib yuborayotganday. Osmongacha o'rlab chiqqan xufton qorong'uligidan haybatiniyu bastini ilg'ab-ilg'amayotgandekman. Nega shunday tuyuldi, o'zim tushunmadim.

Nazarimda bu kecha sodir bo'layotgan barcha voqealar yolg'iz shu hukmdorning amri-ixtiyori bilan kechayotgan kabi edi...

Men o'z xayolimdan o'zim qo'rqib ketib, yugurgilab pastga qochib qoldim.

Ammo tojning, tojdorning turishi rosa haybatli, rosa maftunkor edi bilsangiz...

Ko'k Bo'ri

Biz Mirhomid amakining bog'idagi (Bog' qayoqda! Bir yoq pastak devorini demasa, boshqa tomoni ochib, dalaga qo'shvorilgan, faqat hovuziyu o'sha dala ichida, uch-to'rt turgina noklari qopti!) noklarning tepasida azbaroyi qizarib, xol tashlab, asal tortib ketgan kadi noklarini qoqmalab, maktabdan qaytarkanmiz, olmazordan o'tganda polizga mol qo'yvorilganini ko'rib, o'sha yoqqa burildik.

- Izg'ib yurdikmi, xirmonga o'ta qolaylik, xirmonni qara, - deb qistadi Soli.

Rostdan ham tepaning ustiga qurilgan chayla yonida arava turar, uch-to'rt odam kuymalanishib, tarvuz ortar edi.

- O'zing boravur, - dedim men istamay. Yuzni sidirib tashlab, tarvuz so'ramishman! So'ramay qo'ydim! - Xazonchenak qilib topganga yetarkanmi?!

- Shu mollar, shu bolalardan ja qolsa kerak! Men surdim, - dedi u, - keyin afsuslanib yurma.

- Boravur. boravur, bizga nasib qilgani ham bordir, - deb pushta oralab ketdim.

Palaklar allaqachon qovjirab, o'lib bo'pti-ku, nuqul oyoqqa chayir ipdek ilashadi. Nima balo, xazonchechakdan ham kech qolibmizmi, har yer-har yerda mol g'ajib, tuproqqa qorishtirib tashlagan po'choqlari ko'rinadi. Ammo g'umay o'sib, ituzum bosgan joylarda o't orasida qolgan bolachalarini topib olsam bormi, oh, bir maza qilar edim. Mushtdeklari ham shunaqa qizil, shunaqa shirin chiqadiki, ana uni tizzaga urib yorsang-da, keyin yesang, mazasi bir umr og'zingda qoladi.

Men alanglab yurib, bir ituzum bosgan joyga borib qoldim. Shig'il donlab g'arq pishib yotgan ituzumni pechak o'rab ketibdi. Men bolaligimda qishga olib qo'yilgan ituzumning suvidan har shamollaganimda ichaverib, ko'rsam ijirg'anadigan, tomog'imda bir taxir aralash shirin narsa turganday bo'p'qolganman. shushu ituzum ko'rsam, ko'nglim ozadi. Qo'limniyam urmayman.

Men uni oyog'imning uchi bilan yorib o'tib borayot-sam, ostida sariq oltinday bo'lib, bosvoldining bolachasi yotiпти! Ustiga engashmasakanman-a! Olmasakanman-a!

Olsam deng, shu gurkiraydi, gurkiraydi, hidi olamni tutgudek. Asal tortib ketipti, jonivor. Asalning o'zi bunchalik gurkiras.

Oyimlarga ilinib, jildimga solib qo'ydim.

Solib qo'ydim-u, hidi qo'llarimdan ham kelib turiпти.

Oftob charaqlab yotiпти. Tip-tiniq osmonda kurkinaklar quvlashmashoq o'ynaydilar. Mollar dalalarga yoyilib, yayrab ketgan. Jiyda shoxiga ilinib qolgan mezonlar yengil yeldan o'tinch so'raydi. Uzib yuboraqolsayu yana uchib ketaqolsalar keng dalalar qo'yniga!.. So.liga qarasam, xirmonda qorasiyam ko'rinmaydi. Jiydani taglab Izzaga tushib bora boshladim. Yetib olar o'zi.

Lekin Jimittepaning ustidan ko'prikka qarab borayotib, soylikda bir odamga (nega bir odam bo'lsin, Haybat akam-ku!) ko'zim tushdi. Tizzasida miltiq, yo'l yoqasidagi chimda xuddi birovni izlab-izlab topolmagan-u, topsa sog' qo'ymaydigan odamdek bir alpozda o'tiribdi.

Tiniq tortib, sharqirab yotgan suvdan ko'zini uzsa, qani, atrofiga qarab qo'ysa qani! Vajohatiyam... buzuq.

Kennoyim tegirmon tepasida yo'qolib, to'yi to'yda, nikohi nikohda qolib ketganini... O'zini o'shandan beri endi ko'rayotganimni eslab, qo'rqib ketdim. Kimni yanib, yo'lini poylab chiqibdi ekan? Ko'rsa, naq otadi-ku!

Orqamga sekin burilib, qochib yuborishga shaylangan joyimda... shipillavolib Soli kelib qoldi. quchog'iga sig'maydigan tarvuzni ko'tarib opti. Tashlab yuboray deyapti-yu, yerga qo'ya olmaydi. U yetib kela meni turtib o'tib keta boshladi:

- Jildik-jildik, Jamilbek amaki kelyapti!

- O'zing jilaver, men bu yoq bilan, - dedim.

U ovsar hali pastdagi poyloqchini ko'rgani yo'q. Ko'rsa nima qilarkan, deb to'xtadim.

- Mening o'rnimgayam xivich yeb yurma, deyman-da,- deb ishshaydi u yo'lidan qolmay va birdan miltiqli odamni ko'rib, sapchib tushdi. Shu sapchib tushganida tarvuzni tashlab yubordimi yo tashlab yuborib, cho'chib ketdimi - bilmayman.

Ishqilib, yumronqoziqday bir pusinganiniyu keyin changalzor ichiga urib ketganini bilaman. O'zimga kelganimda, u Jartepaning ustida qochib borar edi.

Tarvuz so'qmoqqa tushib ikki palla bo'lganicha, biri o'sha yerda chimga yonboshlab qoldi, boshqasi dumalab borib, arava yo'lga

yetganda, shunday qizarib pishgan narsa tuproqqa to'nkariddi. Eh, uvol bo'ldi!

Men chopib borib ko'tarib olgim bor-u, Haybat akadan hayiqib turibman.

U bo'lsa, tepaning ustida qochib borayotgan Soliga qarab anqayib qopti. Bir tuproqqa qorishib yotgan tarvuz pallasiga, bir men tomonda yotganiga qaraydi-yu, biron narsa angelayotganga o'xshamaydi. Shunaqa xayol opqochib ketgan ekan o'zini. Mirzarahim ham solini tanigan bo'lardi, bu tanimay turibdi. Esi shunaqa og'ib qoptimi, tavba. Men unga achinib, borarimni ham, ketarimni ham bilmay turarkanman, birdan meni tanib, o'qraydi. Tizzasidagi miltiqni olib, o'rmidan turmoqchi bo'ldi-yu, yana fikridan qaytib, imladi:

- Hov, xatchi! Ma'qib qaqqayib turibsan? Ko'tarvolmaysanmi tuprokdan!

Menikimas deyishning o'rmi yo'q. Uning ustiga, o'zidan qo'rqib turibman. Hammasidan ham tanib turib "xatchi" deb chaqirishi qiziq edi. Demak, mendayam ginasi bor, Marg'u kennoyimning xatlarini Sultonmurod akamga tashib yurganlarimni biladi. Noiloj yo'lgacha tushib, to'nkarilib yotgan tarvuz pallasini yerdan oldim. Yuzi bir qavat loy bo'p qopti. Ichidan seli qip-qizil qonday tepchib turibdi. Lekin ko'z o'ngimdan bir vaqt guvohi bo'lganim - shu Haybat akam o'zining Barzanida, xuddi shu yerda, kennoyimning yo'lini to'sib turganlari ketmaydi. "Unamasang, bari-bir qo'ymayman, mana shunday otga o'ngaramanu opqo-chib ketaman", deganlari quloqlarim ostida jaranglab turibdi. Yo tavba. Xudo xohlasa, desa-ku, shu gaplar yo'qmidi. O'zi mana bunday kimdan alamini olishni bilmay o'tirmasidi...

- Hov, merov! Opkemaysanmi? Turishingni qarayu loyga qorib!

U turib, yonidan pichoq chiqardi. Men tizzam qaltirab, oldiga ketyapman-u, ichimda tutvolmaydimikan, o'ldimi, deb boryapman. Kelib-kelib, alamini mendan oladimi! Olsa, kim uchun oladi, kennoyim uchunmi?!

Yo'q, u qo'limdan tarvuzni ola, ustini bir qavat qirqib tashladi-da:

- Qara, shunday narsani uvol qilib tashlab ketyapsanlar! He, sendaqa tarvuz o'g'rilaridan o'rgildim,- dedi.

Miq etmadim. Etsam, tilimdan tutishi, so'kib qolishi yo tarsaki tortib yuborishi mumkin. Fe'lini bilmagan kaltakni yeydi.

- O'tir! - dedi u jerkib. - Endi o'zing yeysan. Qorning yorilib ketsayam, yeb bitirib ketasan. Ungacha javob yo'q.

Menikimas deyishga qani tilim aylansa. O'ziyam sezib turibdi menikimasligini. Lekin og'iz ochib gap qaytarishimni kutayпти.

Qaytardim deguncha eshitadiganimni eshitib olaman. Men ham cho'ka turib:

- Unisiniyam... opkelaymi? - dedim qo'rqa-pisa. U boyagi joyiga oyoq uzatayotib (xayriyat, insofga kelib), buyurdi:

- Opke!

Men chopib borib, uni ham oldim. Unisiga hatto chiviq yopishmabdi. Bir xil qizlarning duv qizargan yuziday gard yuqmay turibdi.

- Mana, sizga buyurgan ekan, - deb yuboribman.

- Shunaqami? - U aftimga o'qrayib bir qaradi-yu, men sidqidil ekanimni ko'rib, yumshadi.

- O'tir! Egasi ming poylasin, o'g'ri ming ko'zlasin, nasib qilgan yeydi, - deb tarvuzni kosa qilib qirqa boshladi. Avval menikini kosa qilib qo'ydi, keyin o'zinikini. Pichoqning uchida bir bo'lagini og'ziga soldiyu "Im" deya qalqib ketdi. So'ngra:

- Voh, - deya og'zidagini yutdi. - Hoji eshonning yeriga tarvuz ek, deganlaricha borakan.

Men jildimdagi bosvoldining bolachasini olib, bir hidlatgim keldi-yu, ammo uni hidlab aynib qolishidan qo'rqdim. Bilib bo'ladimi, bosvoldining bo'ylari yigit kishiga nimalarni eslatmaydi. Agar kennoyimni eslab qolsa bormi, o'ldim deyaver.

Biz chimga o'tirvolib, indamay tarvuz yeyar, har kim o'z pallasini bilan ovora, o'z xayollari bilan band edik. Tepamizda

kurkinaklarning bozoriga ham, bu yoqda Izzaning sharqiroq ovozigacha ham parvo qilmaymiz.

Lekin Haybat akam uch-to'rt bo'lak yeb (yana alami esiga tushib ketdi shekilli), tarvuz ham tomog'idan o'tmay, qo'lining shirasini qiyig'i chetiga artgancha, jim o'tirib qoldi. So'ngra meni endi ko'rayotgandek tikilib, boshdan-oyog'imgacha bir g'alati qarab chiqqa bosh-ladi. Xuddi ko'ziga qon to'lgan odamdek labining cheti uchib-uchib qo'yadi. Men uni bu ahvolda vajillab qaraganayotgan bir o'toqchi ayolning ustiga tik bostirib borib, "O'chir-chi, o'chir, bo'lmasa chopib tashlayman hozir!" deb azot ketmon ko'targan paytida bir ko'rganman. Yuzi qorataloqdek qora-qizil bo'lib ketgan edi o'shanda.

Hozir ham basharasi o'shanga yaqinlashib qopti. Qanaqqib survorsam ekan? Ko'zini shamg'alat qilishni shu o'ylayapman-u, hech bir epaqali yo'l topolmayman. Unga sari ichim tushib, dukurlab boryapti. Men tarvuznimas, tarvuz meni yeyapti go'yo. Qaerdanam unga ro'para bo'ldim? Ko'ziga qaramasam deyman. Qilt etsa, tura qochvorishim tayin.

- Shoshma, yeysanda shu tarvuzingni! O'tir, mana bunday! - deya kutilmaganda u jerkib, yelkamdan bir tortib, chimga o'tqazib qo'ydi. - Cho'nqayib opsan! Cho'nqayibam ovqat yeydimi!

O'ldim endi. O'z oyog'im bilan kelib, qo'lga tushib o'tiribman-a!

Badanimga titroq kirib, qaerdanam ro'para bo'ldim, Soliga o'xshab qochvormaymanmi, deb turibman ichimda. Men nimayu

bo'rining oldiga bog'lab qo'yilgan qo'zichoq nima? Bilib bo'ladimi bu jinni xo'jani!

Qulog'imning tagiga tortvorsa, qaerga borib tusharkanman!

- Qo'rqma, men sendan so'raydigan narsalar bor. Faqat, rostini aytasan, - dedi bir palla. Aftidan o'zi boyagidan sal yumshagandek edi.

Men jon-jon deb bosh silkidim. Shundayam ko'ziga qarashga holim yo'q, botinolmayapman. U oyog'ini uzatib, tizzasini siladi.

Izzaning qaeridan o'tib kepti, qizil etigining yuzi, qo'njlari balchiq bo'b ketgan, endi qurib bo'zarib borar, lekin baribir xunuk edi.

U esa, loyni parvosiga ham keltirmay, hadeb usti qurib qovjiragan chimni yuladi.

Nihoyat, pishillab xo'rsindi-da, meni hayiqmasin debmi, miltig'ini yanayam nari surib qo'ydi va kutilmaganda yelkamga qo'lini tashlab:

- Menga qara, - dedi o'tinganday, - rostringni ayt, akangni... qachon ko'rgansan oxiri?

- Oxiri? - Men uning nimaga buni so'rayotganini anglab turgan bo'lsam ham, beixtiyor yuziga qaradim: nima balo, uni izlab, undan ko'rib yuribdi ekanmi?!

- Xayrlashgani kirgandir, axir?

- Kirdi, - dedim o'sha kungi kennoyim bilan tasodifiy uchrashuvini eslab. Lekin uni bunga aytib bo'larmidi!

- Qachon? Qaysi kuni edi o'sha? - dedi u yana beixtiyor yelkamga turtib.

Betiga qaragam, yana qora-qizillashib boryapti. Ko'zlari o't bo'lib yonadi. Rostini bilmaguncha tinchimaydigan. Aytdim.

- O'sha Bo'zsvudga to's-to's bo'lishidan sal oldin.

- Sallot tashlagan kunmi?

- Ha-da.

U o'ylanib qoldi. O'zicha allanarsalarni chamalab, hisoblab ko'rdi. Yuzidan qora-qizillik yo'qolib, bo'shshadi.

- Nima deb edi? Bormiding o'zing? - dedi ishon-qiramay.

- Bo'lganda-chi! Oyim yo'q edilar uyda.

- Xo'p, nima dedi?

- Bergan tuzlariga rozi bo'lsinlar, xayr, dedi.

- Yo'g'-e, jo'nab ketayotgan ekanmi?

- Shoshib turgan ekan, kutolmadi, - dedim men. Lekin beda ortilgan aravani aytmay qo'yaqoldim.

Haybat akam nina uchi bo'lib yotgan murtiyu soqollarini hardamxayol ishqadi. (To'ydan beri soqol olish xayoliga ham kelmay, cho'ziq yuzini tutib bora boshlabdi. Balki ko'ngliga sig'magandir hech.)

- O'sha bo'yi... qorasini ko'rsatmadimi? Men bosh chayqadim:

- Yo'q. Barzan yo'qolganida ham... qidirib topolmadik. Opoqi siqtab kelgan edilar.

- Qaysi? Salimbek amakining kampirlarimi? - dedi u.

- Ha, yordam qilsin deb oyimning oldilariga kelibdi.

- Qiziq, - dedi Haybat akam o'zicha buti orasidagi chimlarni yulib-yulib, - qayoqqa bosh olib ketdi ekan? - Va ilkis o'girilib, menga qaradi: - Yo Nusrat pochcha shaharga qochirib yubordilarmi?

- Men bilmayman, - dedim.

Izza bekor undan gumonsiraysan, degandek o'zining sharqiroq tilida bir nimalarni so'zlanib yotardi. Tarvuz pallasi ustida bahaybat bir qovog'ari g'o'ng'illab aylanib, shiraga qo'nmoqchi bo'ladi-yu, bizdan hayiqib jur'at etmas, lekin boshqa yoqlarga ketib ham yubormas edi. G'o'ng'illashi g'ashiga tegib, Haybat akam qo'lining orqasi bilan bir urgan edi, ari demaganlar uch quloch nariga borib tushib, tuproqqa qorishdi va jon holatda o'zini o'nglab, uchib ketdi. Tavba, ari zoti urgan-quvgan saring yopishib kelib, talashga tushar edi, bunisi boshimiz ustida bir aylanib ham qo'ymadi.

- Unda qayoqqa ketgan bo'ladi? - dedi yana ishonqiramay.

- Kim bilsin, - dedim men. Lekin o'sha kelin uzatib borilayotgan kecha tegirmon oldida ko'rganlarimizni, tegirmon tepasida ot bir kishnab, keyin birov Cho'lponota tomonga ot choptirib ketganini aytib bo'ladi bonga. Aytganda ham, tushuntira olarmidim. U mening xayolimda kechgan narsalarni sezib turgandek, qosh uchirdi:

- Anuv gaplar-chi, hammasi puchmi? - dedi yuzimga tikilib.

- Qaysi gaplar? - dedim biron narsani nojoyiz aytib qo'yishdan haliyam hayiqib.

- Ko'tarma tomonda jon saqlab qopti, qochib yurganmish deganlari-chi?

- Eshitmadim men. - Shunaqa deb qutulmasam, ijkilab holi-jonimga qo'ymaydigan. Nima bo'lganda ham, alamzada odam, hazilmi, to'y kuni kelindan ayrilib qolish, odamlar o'rtasida bosh ko'tarib yurish?..

Lekin bir narsaga hayronmanki, akam "o'sha gapim gap" deganida nikoh kuni opqochishni nazarda tutganmidi. Ko'ngli bor ekan, nikohgacha qayoqda yurgan edi? Shuncha ishlardan keyin endi ular qaytib kela olishadimi? Odamlarga qanday ko'rinishadi? Balki hammasi bekordir. Akmal o'risning ishi, tuzog'idir bular. Unday dog'uli odam bormi?

Haybat akam negadir turib borib, Izzada yuzini pishib-pishib chaya boshladi. Kun issig'iga qolib ketgan odamday to'xtab-to'xtab, xuddi shu suvdan orom olayotganday, o'ziga kelayotganday, chayib qonmas edi. Nihoyat, belbog'iga artinib qaytarkan, menga zimdan zingil tashlab qo'ydi. Sezdim, haliyam ishonmayapti. Bir nimani aytmayapti bu jinqarcha, deganday qarab-qarab qo'yadi-yu, sir bermayapti hozircha.

- O'zingiz ma'qib miltiq ko'tarib yuribsiz? - dedim zora gumonlari tarqab ketsa, degan umidda.

U o'lganining kundan kuldi:

- O'sha bo'rining yo'lini poylab-da.

- Bo'ri? - Men uning gapi hazilmi-chinligini bilmay, hayratlandim.

- Bir ko'k bo'ri chiqqan. Necha kundan beri yo'lini poylayman, qorasini ko'rsatmaydi. Ko'rsam, peshonasidan darcha ochardim-qutulardim, - dedi u Izza bo'yidan ko'tarila turib. Lekin aftimga qaramadi.

- Ko'k bo'ri? Shu Izzadami?

- Yo'q, - dedi u bosh chayqab. - Avval Bo'zsuvning bo'yida paydo bo'lgan. Keyin izg'ishga tushgan.

- Biz eshitmadik-ku hech.

U mening gapim nasha qilib, kalta kuldi.

- Tushunmading. Men ikki oyoqli bo'rilarini aytayotibman.

- Yo'g'-e?

- "Io'g'-e"ing nimasi! Ayniqsa, bir ko'k tusligi bor. Xudoning boshli-ko'zli balosi. Otadigan bo'lsa-mam, avval o'shanisini yo'qotaman, - dedi u yonimga kelib tikka turganicha.

Men tizzam qaltirab, betiga qarashga ham jur'at etmay o'tirganicha o'giribman. Turishga mador qani. Ko'k tusligi nima ekan? Odammi? Shu eslamochi bo'laman, qani yodimga kelsa.

Va birdan o'zi habashdek qora, lekin ustidan ko'k movut kitel-shimini hech qo'ymaydigan anuv odam ko'z oldimga keldi(!)

- Akmal o'risnimi?

Haybat akam menga hayratlanib bir nazar tashlab ko'ydi. Balosan-ku, demoqchi bo'ldimi... va so'zida davom etdi:

- Qo'limga tushmadi ammo-lekin!.. Tushsa sog' qo'ymasdim, uyining kulini ko'kka sovurganlari holva bo'lib qolardi.

- Qaytib kelmaydigan qilib ko'chirib yuborishdi, shekilli?

- E, u suvyuqmas qayoqqa ketardi shunday joyni tashlab? Akangdan hayiqqanidan qorasini ko'rsatmay turibdi-da. Hali ko'rasan, qaytibam keladi, tuvaklilarning boshida tegirmon toshini yurgizadiyam. Akang Bahriddinning o'chinyam birato'la olishi kerak edi u dayusdan. Nimaga chalg'idi - tushunmayman.

Men o'tiraverishga o'ng'aysizlanib, sekin turdim.

- Orada Parpi borakan-ku, axir, - dedim kattalardek mulohaza yuritayotganimdan o'zim ham hayrat-lanib.

- Ha, bu dog'uli Parpiga to'nkab qutuldi. Uning oldida buni peshonasidan otsa arzirdi. U qilmagan ishni endi men qilaman, mendan ko'rsin! - dedi u kutilmaganda qo'shotarini ko'tarib olib.

- Siz... siz... - dedim-u, u yog'ini aytmadim. Marg'u kennoyimni u opqochgan deb o'ylaysizmi, deyishga jur'at qani menda.

Ammo u nima demoqchi bo'lga-nimni tushundi, ko'zlarimdanmi, so'zlarimdanmi tushunib, bosh silkidi.

- Akmaldan bo'lak it ham qilmaydi. Unga birovlarining nikohini buzish, uyini musodara etish, o'zini ko'chirma qilish bo'lsa

bo'lgani! Qaysi eldan, elatdan ekaniniyam unutvorgan. Men o'shalarning qutqusiga uchib, Barzanning yo'qolganini akangdan ko'rib yuribman.

- Qanday? Avvalgi yo'qolganidami?

- Qayoqda! - dedi u eslagisi ham kelmay. - O'zlari yashirib qo'yib, Sultonmurodga to'nkashmoqchi ekan. Shunaqib qutulmoqchi bo'lishibdi. Ikki o'rtada oramizni buzib qo'yay deyishdi. - U miltiqni yelkasiga solib, ketishga taraddudlandi.

Men esam, mavridi kelganida so'rab qolishga shoshib, atrofida girdikapalak bo'lib, ergashdim.

- O'shanda... O'shanda akam bordimi? Uchradimi sizga?

- He, - deb nasha qilib kuldi u, - akang ham qiziq. Ikkita melisa yuboribdi. "Tezda Toshturmaga chaqirilsin, haqiqiy ot o'g'risi bilan yuzlashtirila-di", debdi. Oldilariga solib opketishyapti, opketishyapti. Bir mahal raisning idorasiga olib borishdi "Nima deysiz, Barzan tovg'artelni bostirmasida degan xabar oldik, bu ukamizni qo'yib yuboraylikmi yo organni chalg'itayotgan aybdorlarni o'zingiz topib berasizmi?" deb turishibdi.

- Barzan rostdan ham o'shatta ekanmi?

- Bo'lmasa-chi! O'sha kuniyoq opkelib berishdi.

- Uni qarang-a!

- Sen, melisalar kim ekan, degin!

- Kim ekan? Tanishlari ekanmi? - dedim hayron qolib.

- Qayoqda! O'zining yigitlari ekan. Melisaning kiyimini kiyib olishibdi xolos.

- Qoyil-e! - deb yubordim.

- Ha-da. Keyin surishtirib biddim-ku men. Faqat... - Jimittepa ustilab, changal oralab ketgan so'qmoq bilan yura boshladik. -

Faqat, bitta narsada adashdim men. Oldiga boravursam bo'larkan. Bunaqa voqealar bo'lib ketarkan, ochiqcha gaplashib olmaganimga armon qilaman. Uloqchiligim nima! Chavandozligim nima! Ermak uchun, shuhrat uchun yurganakanman ularga. Bundan akangga qo'shilib ketganim ming marta yaxshi edi...

U yonib, alam-achchiqqa botib gapiryapti-yu, men hijolatlarga tushib ketyapman. Akam bilan kennoyim o'rtasidagi gaplarni bilmasam ham mayli edi. Ularning uyimizdagi oxirgi uchrashuvlarini ko'rmagan, akamning va'dasini eshitmagan bo'lsam, tegirmon tepasidagi voqealarni bilmasam ham mayli edi! Haybat akamga bir taskin bera olarmidim, yupata olar-midim. Endi-chi, endi qanday, siz adashyapsiz, deya olaman? Marg'u kennoyimning o'zi sizni istamovdi, deb aytolmayman-ku! Umuman, bu aytib bo'ladigan gapmi?

- Xo'p, - dedi u nihoyat Jiydaqator tagidagi yo'lga chiqib, - akangning daragi chiqsa, meni ayt, ko'rishmoqchi de. Anuvni esa, topsam, o'zim bilaman.

U shunday dedi-da, onti qattiq odamlarday yuzi uchib-uchib, boshqa biron so'z demay jo'nab yubordi. Yelkasidagi qo'shotarining nili sovuq yiltirab, har qadam otganda qadami birla ko'tarilib tushar, undagi o'qlar faqat ko'k bo'riga atalganmi, yolg'iz o'zi bilar edi.

Bir Palakning Bolalari

- Oyi-oyi, qarang, xazonchenaqdan nima topdim!..- deya suyunchiladim.

Oyim bosvoldi bolachasini ajablanib qo'llariga oldilar.

- Yo qudratingdan, mushtdek bo'lib pishibdimi? - dedilar, So'ngra hidlab ko'rib, g'alati ma'yus tortib qoldilar.

- Bilasizmi, men uni qaerdan topdim? Hoji eshonning yeridan topdim!

Hoji eshonning yerlari bizning yerlarimiz bilan yonma-yon edi. Oyim bir g'alati bo'lib ketdilar.

- Ko'rib turibman, bolam, ko'rib turibman, - dedilar ovozlari o'zgarib. - Bo'lak qaerda ham bitsin bu xil bosvoldilar? Bizning yerdayu Hoji eshonning yerida bitardi.

Oyim duvarak bosvoldini bir chetga qo'yib, yenglarini kishi bilmas mijjalariga bosdilar.

- O, bolam-a! Qanday yerlarimiz bor edi: nima eksang, oltin bitadigan... Hammasidan judo etdilar, mosuvo etdilar.

Ovozlari bu tarz qaltirab chiqqanini hech ko'rgan emasdim, ko'nglim buzilib ketdi. Nimadan bunchalik to'lib o'tirgan ekanlar? Men anqov, nega sezmayman?..

- Qaysi fe'limizdan bo'ldi, ishqilib bo'ldi, - dedilar axiyri o'ksilarini ichlariga yutib. - Mana endi kamiga to's-to's etib, to'zitib yotibdilar. Niyatlari nima, urug'imizni quritib, palagimizni yo'qotishmi?..

Hamma noliganda ham miq etib sir bermaydigan oyimning bu xil yorilishlari g'alati edi. Cho'chib yuzlariga qaradim.

Men xavotirga tushib qolganimni ko'rib, oyim o'zlarini bosdilar.

- Xudoyimning O'zi mehribon. O'ziga solib qo'rganimiz, ko'rsatar o'shalargayam, - deb yuzlariga fotiha tortib tura boshladilar. Dasturxonni yig'ishtirib, kovshandozga tushdilar.

So'ngra nimadir eslariga tushib, ostonada to'xtadilar.

- Qorning qanaqa, bolam?

Po'chtachining noki, yo'ldagi yong'oqlarning to'qi hali ketmagan edi.

- Yaxshi, oyi, nima edi? - dedim.

- Choy-poy ichvolsang, borib keladigan joylaring bor edi. Choynakni olib chiqaqol, - deb zinaga tushaverdilar.

- Kelib icharman, aytavuring, - deb men yig'ishtirina boshladim.

Bungacha oyim dasturxonni supa yonboshidagi katta tol tagiga qoqib, qaytdilar.

- Ko'chib kelibam, shuncha voqealar kechibam bir xudoyi-ehson qilolmabmiz. Rahmatli oyim bilan Zumrad xolang tushlarimga kirib yurishibdi. Bu yoqda Sultonmurod akang bir ketgancha, bedarak. Shundan ular ham bezovta shekilli. To'rtta odam chaqirib o'tkazsak, o'tkazib yuboraqolaylik.

- Borib kelaveraman, - dedim otlanib. - Avval Nusrat pochchamlarnikiga o'taymi?

- Yo'q, pochchamlarga maslahat qilganman. U kishi masjidgan Zokir qorini opkeladigan bo'lganlar, - dedilar oyim dasturxonni qoziqqa ilib. - Sen faqat yaqinlarni, pochchaning ulfatlarini aytib kelasan. Bir yig'ilishsin.

- O'zlari aytdilarmi? - dedim men hayratlanib.

- Yo'q, men o'zim...

- Zo'r o'yabsiz, oyi, - dedim quvonchim ichimga sig'may. (Shunaqa odamlar kelishadiyu sevinmaymi! Men ularning bir yig'inlarini ko'rganman. Choy tashib turib, suhbatlariga mixlanib qolganman. O'sha-o'sha soyalariga salom beraman har bittalarining). -

Hammalarini aytib kelaveraymi? - dedim halitdan yuragim hapriqib.

Oyim hayron qoldilar menga.

- Sen.. kimni aytyapsan?

- Oshnalarinida u kishining...

- Sen qaerdan bila qolding ularni?..

- Bilaman-da, - dedim sirli qilib, - Sanab beraymi?

- Qani?..

- Yakkabog'dan... Qozi pochchani, u kishiga qo'shib Mo'min tog'ani aytib kelaman. Bu yoqdan Sul-tonbek qori buvani, anavi Saynabi domlani... Topdimmi?

- Yana-chi? - dedilar oyim.

- Shu yoqdan yana Mimit buvani...

- Mimit buvang kim?

- Mana shu qo'shnimiz-chi!

- Ha-a! - dedilar oyim jilmayib, - Xo'sh, tag'in-chi?

- Tag'in, anuv, "Cho'lponota"ning domlasimi, nimaydi?..

- Zokir qorini aytasan-da?

- O'sha, uzun bo'yli, tilovat qilganda bedanalar ham jimib qoladigan odamni...

- Bilarkansan. Barakalla, bolam. Shularga ixtimat qo'ysang, kam bo'lmaysan. Salomingni ayama hech. Ulardek bo'lsang, jon derdim, - deb oyim boshimni silab, yelkamga qoqib qo'yidilar. - Mayli, bora qol. Ertaga peshin namozidan chiqib

boraverarkansizlar, degin. Ha, aytmog'chi, domlaga ovora bo'lib borib yurma. Nusrat pochcham qorini o'zim opkelaman deganlar. Faqat bu yoqdan Usmon tog'ang bilan u yoqdan Norxo'ja pochchani unutmang bo'ldi.

- Xo'p, oyijon.

Men goh u yonimga, goh bu yonimga shox tashlab, o'ynoqlab borib, eshigimizdan chiqdim. Oyim:

- Hoy, Maqsudxo'ja, tez kelgin. Tentirab yurma meni xavotirlantirib, - deb qolaverdilar.

Ertasiga Nusrat pochcha hoji oshnalarini ko'rib, bir suyunadilar, bir terilariga sig'maydilar. Har bit-talariga quchoq ochib:

- Hay, ulug' ish bo'ptida kelganingiz, hay, zo'r bo'pti-da, anchadan buyon to'planishmaganidik, biir majlis quradigan bo'pmiz-da, - deb eslari ketardi.

Nusrat pochchanning bu hayratlari, xursandchiliklari mehmonlarga yuqib, ular ham ta'sirlanib, ko'zlari namlanib, bir-birlariga jilmayishadi.

- Biz siz aytirvoribsiz deb kelaversak, buna-qamidi hali? - dedilar Mo'min tog'a soddadillik bilan.

- Bumi? Bu Salomxonning ishi. Baraka topkur, xo'b tushungan ayol-da. Suhbat qurmaganimizgayam allaqancha bo'luvdi, diydor ko'rsatganiga shukr, shu kunlarga yetkazganiga shukr, - deb oshnalarining kuraklarini silay-silay tavof etib, ichkariga qistay boshladilar.

Men qo'limda obdasta, yelkamda sochiq, u kishilarning qo'llariga suv quyib turibman. Oyim buyurganlaridek ularning duolarini olib qolayotirman.

Ular ham - har bittalari bir dunyo, salobatleri Xizrcha bor, duo qila-qila uyga qarab yuradilar.

Shunaqqib, soqollari ko'ksilariga tushgan, undan oq sallalari bir chiroyli o'ralgan, egnilarida sariq yo'l-yo'l xalat, qozi pochcha kirib keldilar Mo'min tog'a bilan boshlashib. "Siz yuring, yuring siz"lashib. Hamisha otda basavlat ko'rinadigan qozi pochcha uzun bo'yli, qotma Mo'min tog'aning oldida ham o'sha-o'sha salobatli edilar. Yuzlaridan bir nur yog'iladiki, uni ko'rib odamni sir bosadi. Shunaqqib, hassalarini do'qir-do'qirlatib tashlab, Sul-tonbek qori buva kirib keldilar.

Shunaqqib, cho'ntaklarida biz bolalarga ulashadigan mayizu shirinliklari hech tugamaydigan Mimit buva qo'g'irchoqday bo'lib ko'rindilar.

Ichkaridan Usmon tog'amning kuylaganday mayin tovushlari eshitilib turibdi. U kishi bu yerning odamiga hech o'xshamaydigan, hindilardek qora, buning ustiga, qirra burun, mushtdekkina boshiga salla o'ragan "Cho'lponota"ning domlasiga nimanidir tushuntiryap-tilar. Ora-chora u qorining ham bidirlab, bir nimalar degani eshitiladi. Lekin tez gapirganidan nima deya-yotganini hech anglab bo'lmaydi. Go'yo boshqa tilda gaplashadigan odamga o'xshaydi u kishi. Ammo men Qur'on tilovat qilganini bir eshitganman. Sayratmalar ham jimib, shamol ham esmay qoluvdi nazarimda. keyin kimam: "Bulbul qori bo'lib ketdi-ey" degan edi.

Hammalari joylashib, fотиha qilishgach, Nusrat pochcha haligi kishiga yuzlandilar:

- Qani, qori, yer egalari, suv egalari, o'tganlar ruhiga atab, bir tilovat qilib yuborasizmi?

Men dahlizda choy olib kirishga shay bo'lib turibman. Uyning to'rida qozi pochchanning yonlarida qimti-nibroq o'tirgan haligi qirra burun qoridan ko'z uzmayman. Ichimda, bugunam bir eshitarkanmiz-da, deb cho'kkalalay boshlagan edim, u tavoze bilan qo'lini ko'ksiga yuborib, qozi pochchaga, boshlab berasizmi, ustoz, deganday qaradi.

Qozi pochcha bosh silkib, izn berdilar:

- O'qing, qori, biz rozi.

Shu bir og'iz so'zlari bilan qori (odat shekilli, mullavachchalardek cho'kkalab olib,) o'shandagidek boshladi. Nazarimda, bu uyda bir jom bordek, ovoz o'shanga urilib jangillab chiqayotgandek, uylarimiz ham o'sha ovoz, o'sha ohangga to'lib bora boshladi, u ovozdand etlarim jimirlashib kelib, bir nafasda rom bo'lib qola qoldim.

Ko'z oldimdagi hamma narsalar qayoqqadir chekilib, shu qorining yolg'iz o'ziyu uning ovozi qolganday edi. O'zini ham elas-elas, allaqanday bir tuman ichida ko'-rardim. Va o'zim sezmaganda holda o'sha ohangga monand chayqalishga-tebranishga tushdim.

Nihoyat, tiq etgan tovush ortiqcha bo'lib qolgan bir paytda tilovat uzilib, hammalari "iloho, omin" deya shovullab qo'l ochishdi va qozi pochcha duoga og'iz juftladilar.

- Alhamdulillah, alhamdulillah, o'zingning Qur'oningni qodir qilganicha o'qishga, uning nurlaridan bahramand bo'lishga muyassar qilib qo'yibsan, yurgizib qo'yibsan, turgizib qo'yibsan, ibodatlaringga mashg'ul qilib qo'yibsan, mingdan-ming shukrlar bo'lsin. Shu xonadondan, avlod-ajdodlardan duo talabda bo'lgan ruhlarga yetkazgin shu kalomingdan hosil bo'lgan savoblarni. Yer egalari, joy egalardan o'tganlarni o'z rahmatingga olib, qolganlarni panohingda asragin. Bu diyorda topgan, topadigan savobu amallarimizni, ilo-ho, o'zimizga hamroh etgin.

Duodan so'ng choy olib kirishga izn berishdi. Opkirdim. Kirib-chiqib, xizmat qilib turibman.

- Shu rahmatli Mahmudxo'janing kenjasimi-a? Yigit bo'lib qopti-ku! Er yetib qopti-ku! O, vaqtning o'tishini qarang, umrning ketishini qarang! Yaqinda emasmi, rahmatli, nega yerimni hukumatingga berib qo'yarkanman, deb yolg'iz o'zlari loy kesib, paxsa urib yotganlari? Kundakov qilinganda-chi, kundakov qilinganda? Tok zangini Domdehqonga sudrab borib, tokda nima gunoh, deb talashib yurganlar-a, tavba, - deyishar edi.

Men esam, har kuni oldilaridan necha martalab salom berib o'tadigan odamlarim meni ko'rib hayratlanishlariga (yana har gal to'xtatib, kimni bolasisan, deb so'rashlariga) hayron edim. Lekin alqab qilgan duolaridan boshim osmonda chopib-chopib xizmat etyapman.

Choydan keyin yarim kosa-yarim kosa mastava suzildi. Ustiga jindek murch, jindek rayhon sepilib, yarim qoshiqina qatiq solinib...

Mastavani opkiryach, o'zim ham bir chekkaga o'tib, ikki to'g'ram non bilan ichib oldim. Shunaqa xushxo'r bo'ptiki oyimning ovqatlari!..

Lekin mastavani ichib bo'pman, necha qayta ular o'tirgan uyning eshigiga borib alanglab kepman ham chollar kosani ola qolinglar deb izn berishmas, Norxo'ja pochcha "Hoy, kichkina Mahmudxo'ja, qattasan" deb chaqira qolmas edilar.

Bu yoqda oyim, kennoyingilar halak. Kosalarni berisha qolsa, tezroq yuvib, o'shanda manti kirgizishmoqchi. Axiyri oyim:

- Bor-chi, manti ezilib ketmasin, - dedilar. Kovshandozdan ko'rinish beray deb kirsam, kosalar

bo'shagan-u, allanima haqda suhbat boshlanib qopti.

- Ho'-o'y, sekinroq aytasizmi? Yomon bo'ldi, yomon; shu to'y buzulgani, shu kelinning yo'qolgani. Asol opamga tushib, unday bo'luvdi, Haybatga unashilib bunday bo'ldi. Nima qilaylikki, u barmog'imizni tishlasak ham og'riydi, bu barmog'imizni tishlasak ham... - derdilar Nusrat pochcha kuyib-kuyinib.

- Qizginada bir gap borligini Haybat bilmasa, aybi yo'q, lekin kattalar-chi? Qaytarishsa bo'lardi-ku, - dedilar Norxo'ja pochcha bu yoqdan bo'ynilarini cho'zib.

- Qaytarganga... quloq soldimi! Shuni olsamam olaman, olmasamam-olaman deb... qo'ydimi! - dedilar Mo'min tog'a. - Irimga ishonadimi hozirgi yoshlar. Mana, oqibati. Miltiq ko'tarib izz'ib yuribdi endi. Qiz o'g'risi yetadigan joyiga yetib bo'lgan-da.

- Kimdan ko'rishingniyam bilmaysan... Sultonmurod unaqa bola emasdi shekilli, Nusratxo'ja? - dedilar Usmon tog'am yig'olmaydigan oyoqlarini xontaxta tagiga uzatib-joylashib.

Men ularning ro'parasida xuddi gap poylagandek turishga iymonib, dahlizga o'tib, taxmonga suyandim. (Chaqirishsa, labbay deb kirishga oson. Undanam burun manavi gaplar moydek yoqib turibdi. Faqat kennoyimni ayblagandek gapirishlaridan g'ashim kelib-kelib qo'yyapti.) Chindanam, kim opqochgan ekan o'sha kechasi? Kelin uzatib borishayotgan oqshom?

- Bilmadim, oka, bilmadim. Bir narsa deyishim qiyin. Ko'ngli borligini bilardig-u, bu ishga jur'at etadi deb o'ylamaganmiz. Hozir ham gumonsirab gunohga botishdan qo'rqaman, - dedilar u kishi. - Bunaqa yo'lga yurmasa kerak edi.

- Unda kim, qaysi Xudodan qo'rqaman? - dedilar Mimit buva. (Men shu yerda turibam, qaltiragan ovozlaridan bildim.)

- Sultonmurodimizni... rahmatli Abdurahim eshon pochchaning bolalarini xalq orasida yomonotliq qilish uchun nimalar o'ylab topishmadi! Shu o'yinlarning bittasidirda bu ham, - dedilar qozi pochcha.

- Balkim-balkim,- deb tasdiqlashdi atrofda gilar.

- Gumondan iymon qochadi. Eshitar quloqqa yaxshimas. Qo'yinglar, yaxshi gaplardan gaplashaylik, azizlar,- dedi begona ovoz. (Bidirlabroq so'zlashidan Cho'l-ponota masjidining imomi deb taxminladim. U kishidan bo'lak hech kim bilag'on odamdek bidirlamasdi.)

- Ha, odam, azbaroyi achinganidan gapiradi-da. Jabr-jabr, Asol kennoyimga jabr bo'ldi. Boyaqish bojamiz unday bo'lib ketuvdi, asrandisi bunday bo'ldi.

- Hech bandani qariganda bunday farzand dog'iga solmasin Xudoyim, - deb qo'yidilar Usmon tog'am. - O'zi shu kishini qavatimizga ko'chirib kelish keragiydi, Nusratxo'ja.

- Lozimiydi-lozimiydi. Ko'rdiz, tushuntirib bo'lmadi-ku, - dedilar Nusrat pochcha.

- Sizlarga rahmat, sizga rahmat, Nusratxo'ja. tag'inam oqibatinglar baland ekan. Kuyovingizni ko'chirib oborib qo'yibsiz. Eshon pochcha, Mukarram akaning chirog'ini yoqib o'tirgan shu Nusratxo'janing kuyovlari bo'ladi, - deb tushuntirdilar Mo'min tog'a. - Baraka topishsin, ilohim.

- Birovning yolg'izini qo'llab, qizlarini berib, vatanli qilib qo'rganlari-chi? Bundan ulug' savob bormi? - dedilar Norxo'ja pochcha. Bunga sari pochcha o'ng'aysizlanib, kaftlariga yo'talar, o'zlarini chalg'itar edilar.

- Biz sababchimiz, xolos, Xudoyim ko'ngilga solsin avvalo, - dedilar axiyri.

- Kim yetim-esirni qo'llabdi, yolg'izni uylab-joylabdi, qo'li kaltalarga qarashibdi, qizlarini chiqarib-uzatishib yuboribdi, savobni to'liq olibdi! Jannati na'implardan o'ziga ko'shk tayyorlabdi! - dedilar qozi pochcha ta'sirlanib. - Nusratxo'ja, buning qisinadigan joyi yo'q, ota-bobolarimizdan kelayotgan solih amal bu.

- To'g'ri aytasiz, eshon pochcha, - deb ovoz berdilar Usmon tog'am. - Otam rahmatli, yettita qiz chiqargan jannati bo'larkan, deb oltita qiz ustiga yana bitta qiz asragan edilar. Bo'y yetgach, mol-sepi bilan, joyini topib uzatganidilar. Yetimga qiz berish, birovni vatanli etish bizga o'shalardan meros. Ana, Salomxon ham shunday qildi, Nusratxo'ja shunday qildi. Ajrini o'zi bersin.

- Beradi, ilohim. Siz solih amal qilibsiz, men to'lig'i bilan beraman, birga ming qilib beraman, degan va'dasi bor Oллоhimning, - dedilar qozi pochcha.

- Shunday-shunday, - deb tasdiqladi imom ham.

- Faqat, uning boshini ikkita, oyog'ini to'rtta qilib qo'yolmaganim - armon bo'lib qolyapti, o'rta manavi urush tushmasa, shu kunlaram yo'qmidi, bojamizning ruhi poklari oldida qarzdormiz, qarzdor.

Achingan Nusrat pochchayu mening ko'zlarimga yosh quyilib keldi. Ich-ichimdan bir xo'rsiniqmi, alammi tirnab-timdalab kelib, taxmon ko'rpalariga sirg'ana-sirg'ana sandiq tagiga o'tirib qoldim.

- Oллоh sabr bersin. Palagi aynimagan bo'lsa, qaerga borsa, xorlik ko'rmaydi, - dedilar qozi pochcha tasalli berib. - O'sha vaboga o'xshagan narsa oralamasin xonadonlarimizga, ishqilib.

- Oralashga oralab bo'ldi, qozim. Xudoyimning o'zi insof bersin qolganlarga, - dedilar Sultonbek qori buva va nafaslar qisib, to'xtab qoldilar. U kishi gapga aralashmay o'tirgan edilar, shu yerga yetganda chidamay ketdilar, shekilli. - Kuymagan kim qoldi, qozim, kim qoldi?!

- Shunaqa deymiz-ku, chirog'imizni yoqadigan ham, o'chiradigan ham o'zi shekilli. Bo'lmasa, kim o'ylabdi, bizning xonadonlarda Xudodan qo'rqmaydigan zuryodlar dunyoga keladi deb?! Kufning ko'chasi ko'p ekan, qori buva, ko'p ekan?! Hammayam Siroti

8 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Uzsmart.UZ
Kitoblar olami

mustaqiymda qololmas ekan, - dedilar u kishi ovozlari o'zgarib.

Hammalari bu gapdan ta'sirlanib, xiyla jim qoldilar. Men ko'rmayapman, lekin tasavvur qilib turibman: qozi pochchaning nozik yerlariga tegib ketmaylik deb har narsaga alahsisalar alahsiyaptilarki, indayolmayaptilar.

- Palakka tushgan kulni, shirani-ku, ko'tarsa bo'lar, lekin buning davosi bormi, qozi pochcha? - dedilar Usmon tog'am axiyri jur'at etib.

- Bizning diyorlarda tong-saharlari esadigan, birov bilib, birov bilmaydigan bir bodi sabo bor. O'sha o'ynoqlab o'tib ketsa, bas, har qandoq ekin g'uborlardan ozod bo'lib, yashnab ketadi. Xudoyimning qudrati bilan shu epkin palaklarni tozalaydi. To'g'rimi, Usmonxo'ja?

- Bilarkansiz-bilarkansiz, Kattabog'ni Kattabog' qilib turgan ham, ne'matlarini asalga aylantirib, qaritmay kelayotgan ham o'sha narsa-da. Har tong Bo'z-suvdan o'ynoqlab chiqadigan o'sha o'ynoqi shabada-da, - dedilar tog'am yosh boladay quvonib.

- Yo qudratingdan, Xudoyim shunaqa chevarmi? shunaqa epkinlar yuborib qo'yibdimi?! - deb ta'sirlanib hayratlandilar Mimit buva.

- Bandasining qalbini kiru qurumlardan tozalaguvchi shunday narsa nimaligini aytaymi? - Kutilmaganda qozi pochchaning bu savollaridan hamma hayratga tushib, ichkari uyda shovur-shuvur qo'pdi. Hammalari har chekkadan qistashdi.

- Ayting, ayting!..

- U - qo'rquv!

Birdan hamma jimib, uyda pashsha uchsa bilingudek bir sukunat cho'kdi. Qanaqa qo'rquv? Nimadan qo'rquv? Hech zamonda qo'rquv ham ichni tozartirar ekanmi? Men hech anglab yeta olmas edim.

- Balli, qozim. Bu qo'rquvda hikmat ko'p, - dedilar Sultonbek qori buva ham kutilmaganda.

- Qo'rquv oralamagan qalb qalbmi? U kirlab bitadi. Shirk, hasad o'sha yerda bolalaydi. Shayton vatan tutadi uni, - dedilar qozi pochcha ilhomlari jo'shib.- Agar odam Xudovandi Karimdan hayiqsa-chi? Ertagi so'roq kunidan, qiyomatda qayta tirilishi, javob berishi muqarrarligidan cho'chisa-chi? Shaytonning so'ziga kiradimi? Palagini buzadimi? Xudo zuryodlarimizni o'sha balodan o'zi asrasin.

- Lekin shirk oralamagan xonadon, foiz gardi urmagan mo'min, harom luqma aralashmagan qozon qoldimi, qozim? - deb yubordilar ovozlari titrab Mimit buva.

- Shukr qiling, Qobil buva, hamma sizday fikrlasa, nonini halolab yesa, oxiratini ham chiroyli qilar edi Xudoyim. Bugunga kelib shunday imtihonlari bor ekan, sabr qilmoqdan o'zga nima choramiz bor?! Abdurahim eshon pochcha xonadoniday to'zitib qo'ysa, to'zitib sinasa, nima qilar edik? Shukr eting shu kuningizga, - dedilar Nusrat pochcha.

- Hov darig', - deb qo'ydi kimdir. Kimdir xo'rsindi:

- Esiz, bir palakning bolalari...

- Aytmoqchi, kichkinasi, nima bo'lgan, ko'rinmay qoldi uyam? - dedi birov.

- Unisidanam darak yo'q, o'zi bilan opketdimi, qoldirdimi - bilolmadik. Boyaqishlar sig'madilar ota yurtga.

- Yo'g'-e, hijratga majbur bo'ptimi? - dedilar Norxo'ja pochcha poygakdan.

Nusrat pochcha xo'rsindilar:

- Balki hammasi yaxshilikkadir. O'sha askar tashlashidan bir kun avval kirdi oq fotiha so'rab. Opoqdoda, duo qiling, yozug'imiz shu ekan, nasibamiz boshqa yurtlarga qo'shilgan ko'rinadi, dedi.

- Chindan-a? - deb yubordilar Usmon tog'am.

- "Nega, bolam? Bizni, o'zing er yetgan diyorni tashlab ketasanmi? Ilojsiz narsa bormi, toparmiz", dedim, - deya davom etdilar pochcha. - "Yo'q, rahmatli otam tushimga kirib yuribdilar. Tag'in dovon oshib borayotgan karvon ko'rdim. Shularga esh bo'l dedilar...", deydi.

- Subhonalloh, - dedi kimdir.

- Yo Arhamar Rohimiyn, o'zlari yo'l ko'rsatibdilarmi? - dedilar qozi pochcha.

- Demak, ketibdi, hijrat etibdi, - deyishdi boshqalar. Qozi pochcha qandaydir oyatni o'qib, qaytardilar:

- Bas, vatanlaridan hijrat qilgan, diyorlaridan quvilgan, mening yo'limda aziyatlar chekkan va jang qilib qatl etilgan zotlarning gunohlarini o'chirgayman. Olohning shunday haq va'dasi bordir. Ilohim, Siroti mustaqiymini topgani rost bo'lsin.

- Uni qarang-a! Bu yoqda biz uni kim deb yuribmiz, hukumat kim deb o'ylab yuribdi, - dedilar Usmon tog'am faxrlanib-havaslanib.

- Boshi toshdan bo'lsin.

- Oloh panohidan chiqarmasin, qaerda bo'lsa ham,- deyishdi chollar.

Va shu zayl borayotgan suhbat poygakda choy quyib o'tirgan Norxo'ja pochchaning savollari bilan yana qizib, jonlanib ketdi.

- Qozi pochcha, shu men sizdan bir narsa so'ray olmay yuraman. Mavridi kepqoldi, agar ruxsat etsangiz...

- So'rang, Norxo'ja, so'rang. Ilmimiz yetgancha aytarmiz, yetmasa, mana, imom borlar, Nusratxo'ja borlar. Birgalashib, deganday... - dedilar u kishi.

- O'zingizdan eshitamiz, - dedilar Nusrat pochcha.

- Ha, sizdan o'tib bir narsa dermidik, - dedi imom ham.

Sal ko'rib turibman, Norxo'ja pochcha joylashib-cho'kkalab oldilar:

- Ilmiyizdan foydalanib qolaylik-da.

- Xo'p, xo'p...

- Shu, mani bilishimcha, hammamiz bir otaning bolalarimiz-a? - dedilar u kishi iymanibroq.

- Shunday-shunday, Hazrati Odam hammamizning otamiz bo'ladilar, - dedilar qozi pochcha. - Biz - Nuh alayhissalomning Yofas o'g'illaridan tarqab, ko'-payganmiz.

- Biz hammi? - dedilar Usmon tog'am.

- Siz... bu o'lkalarga yoyilgan avlodlaringiz... Hazrati Ali shajaralariga borib tutasharmikan, vallohi a'lam. Ishqilib, Odam ota farzandlarimizda ham-mamiz.

- Menam shuni aytaman, - dedilar Norxo'ja pochcha,- shu bir otaning bolalari bugunga kelib, bir-birini tanimaydigan, kezi kelsa, bir-birining payini qirqadigan, dushmanlashib sotadigan, qamatadigan, bir so'z bilan aytganda, Xudodan qo'rqmaydigan bo'lib ketdilar. Mana shu Yakkabog'imizu Kattabog'imizda qanchasini ko'ryapmiz. Qayoqdan kepqolishibdi ular? Ana, Akmal o'risga o'xshaganlar, Parpi bebaxtning atrofidagilar? Shularni deb Bahridin nima bo'ldi? Mukarram pochcha, Abdurahim eshon pochcha

nima bo'ldilar? Mana endi Sul-tonmurod qayoqlarga bosh olib ketibdi? Qachon bir palakning bolalariday... munday totuv yasharkanmiz? O'nglanarmikanmiz yo olam o'zi shunday qurilganmi?

- Hov, Norxo'ja, Norxo'ja?! Bu jumboqni kim yechibdiki, biz yecha olsak, - dedilar qozi pochcha hech kutilmaganda Nusrat pochchaga o'xshab sayxa tortib. - Koshki bir og'iz so'z bilan tushuntirib bo'lsa. Nima dediz, Nusratxo'ja?

Ichkarida jonlanuv boshlanib, pochcha ularning tinchlanishlarini kutganday, ustma-ust tomoq qirdilar.

- Balki birgalashib... topib bo'lar?

- Ma'qul-ma'qul, - dedilar qozi pochcha va boyadan beri bahsga aralashmay izzat kutib o'tirgan imomga o'grildilar. - Balki qorim bir narsa derlar?

U kishi Qur'on tilovat qilaversin ekan-u, gapirmay qo'yaqolsin ekan. Bidirlab, hovliqib gapirganidan, o'lay agar bir narsa tushungan bo'lsam. Faqat Siroti mustaqiyim deganini anglab qoldim, xolos.

Ammo Mimit buva ovozlari qaltirab chiqsa-da, bir og'iz qilib aytib qo'ya qoldilar:

- Hammasi o'z fe'limizdan. Fe'limiz tor.

- Tilimiz namozda-yu, ko'zimizga dunyo chiroyli ko'rinib, jilva qilgani-qilgan.

- Imtihonda bu. Xudoyim shunday sinaydi, - dedilar Saynabi domla.

- Amalimiz chiroyli bo'lib, qiyomatdan qo'rqsak edi, - dedilar Sul-tonbek qori buva, - kam kulib, ko'p yig'lar edik.

- Shaytonning vasvasasiga uchmasak-ku, yig'lar edig-a, - dedi kimdir.

- Iymon sust-da, iymon, - dedilar qozi pochcha.

- Ha-ha, ana endi mag'izga yaqinlashyapmiz, - dedilar Nusrat pochcha pishillab-qo'zg'olib, - Ollohni do'st tutib, o'zigagina tavakkal qilsak, hidoyatga ham boshlardi allaqachon.

- Hadlaridan chiqib borayotgan, toyib borayotgan qancha, - deyishdi boshqalar.

- "To o'zlarinigizni o'zgartirmaguncha..." degan oyat nima haqda kelibdi? - dedilar qozi pochcha.

- Abdurahim eshon pochcha avliyo ekanlar. Hali bu kunlar holva, mo'minlarning boshida qancha imtihonlar bor, deb o'tirardilar.

Bilarkanlar u zot, - dedilar Saynabi domla.

- Olib ketishlaridan bir kun avval muridlariga "endi mendan oladiganingizni olib bo'ldingiz, qolgan ilmni falon yerga borib falonchidan olasizlar", deb javob berib yuborganlari-chi? - dedilar qozi pochcha.

- Shunaqa bo'lgan ekanmi? Uni qarang-a? - deb qolishdi uy ichidagilar.

- O'sha bir kun avval ertadan kechgacha boloxonadagi kitoblarni kigizga o'rab, sandiqqa joylashgan, - dedilar Nusrat pochcha tushuntirish berib. - Keyin qorong'u tushib qaergadir olib borib ko'mib kelishgan. Bu orada Zumradxonga osh damlatib qo'ygan ekanlar, suzdirib kelib, mehmon qilibdilar-da, xuftonni birga o'qishib, so'ng oq fotiha beribdilar. Tong otauncha qolishlariga ham ko'nmabdilar. Erta bilan eshitsak, sahar chog'i kelib, o'zlarini olib ketishibdi. Bomdodni o'qib, istig'for aytib o'tirgan joylaridan.

- La ilaha illalloh! O'zi ayon berarkan-da? - dedilar Usmon tog'am hayratlanib.

- Lekin tayyorgarliklarini ko'rib qo'ygan ekanlar. Zumradxonga: "Rozi bo'l, xotin, diydor qiyomatga qolyapti. Ollohim suygan bandalariga musibat yuboradi. Shukr qilinglar", debdilar.

- Yo Olloh! Ilgarigilar dor tagiga qanday to'g'ri borgan desak, xotirjamlikniyam O'zi berarkan-da? - dedilar Mimit buva.

- O'zi beradi. Shuning uchun ham, so'nggi tilaging nima, deganda, ikki rakat namozga izn so'raydilar mo'minlar va Ollohga yuzlanadilar. Bu bizga Hubayb dan qolgan sunnat, - dedilar qozi pochcha, - Hammaga ham nasib etavermaydi bu ne'mat. Birda bir, o'zi suygan bandalariga taqdir etadi.

Men esam, o'sha o'tirgan yerimda Sul-tonmurod akamni o'ylab ketibman. Nazarimda, uni qaerga qochsa, orqasidan quvib borib qo'lga olishadigandek. Xoin hisoblab, dor tagiga sudrashadigandek. Chor tarafdan odamlarni haydab kelib, xaloyiqning ko'z o'ngida... yo'q, yo'q, dorga tortish oldidan u qiblagga qarab ikki rakat namoz o'qib: "Mana, men tayyorman. Olloh uchun bitta jonim ekan-ku, mingta jonim sadaqa!" deb turgandek.

Biz haqimizda, qarindoshlari haqida bir og'iz bir narsa demay, dor tagiga qarab yurgani, jilla qursa, eslab qo'ymagani alam qilib, ko'zimga achchiq yosh quyilib keldiyu bo'g'zimga qaynoq bir narsa tiqilib... turib ketdim.

Shu mahal... ko'cha eshigimiz ochilib, biron "adajon"lab kirib kela boshladi. Oyimmi, opammi o'sha yoqqa yugurdilar:

- Hay, ovozingni yut, uyat bo'ladi!

O'zim ham uchib, hovliga tushib bordim. Qarasam, xolamning kichkina qizlari. Oyimning bag'rilariga singib ketgudek bo'lib, izillab turibdi.

- Nima bo'ldi, bunday tushuntiribroq ayt, - deganlari sari o'pkasi to'lib, ko'ksilariga chirmashadi.

- Tomimizzi... tomimizzi... - deydi-yu, u yog'ini ayolmaydi. Xo'rliqi tutib qolyapti. Shovqinga (balki qizlarining ovozi tanibdir) pochchaning o'zlari chiqib keldilar. Kovshandozdanoq:

- Hoy, kim bor, kosani olinglar. Bu yog'ini tezlattinglar, - dedilar-u, ostonaga chiqib, bir poy kalishlarini kiya olmayin ham turib qoldilar. Ko'ngillari xunuk narsani sezgan ekan-u, balo bunchalar tez keladi deb o'ylamagan ekanlar.

Axiyri hassalariga tayana-tayana bir amallab zinadan tushib, qizlarining oldiga lapanglab kela boshladilar:

- Hay, ona qizim, oppoq qizim, bo'ldi-bo'ldi, ichkarida shuncha odam, sen yig'lashingni qara, eshitgan nima deydi? - deb borib, bag'rlariga oldilaru boshini silab, turib qoldilar. Va anchadan keyingina sekin dedilar. - O'sha, kechagilarmi? Akmal o'rislarmi?

- Ko'chirmaga solishibdi, adajon. Tomimizni buzishyapti, - dedi qizlari battar ho'ngrab.

- Tinchlan-tinchlan. O'sha jigarimizni deb, Sul-tonmurod akangni deb tortib olsalar, olsinlar. Unga boshpana bergan, deb alamdan chiqmoqchi bo'lsalar, chiq-sinlar. Ko'chada qolmasmiz. Dala bo'lmasa, shahar bor, bir kunimizni ko'rarmiz. Men ularga yalinmayman bolam, Xudoga solaman, xolos, Xudoga... Xudoyim hamma-sini o'zi ko'rib-bilib turibdi, yo'lini ham o'zi ko'rsatadi, ko'rsatadi...

Pochcha shunday deb orqaga qaytaverdilar va zinaga yetganda kimnidir izlab, alangladilar.

- Hoy, Poshshaxon, joynamozlaring taxtmi, qizim? Asrni o'qib olaylik. Mantini keyin kiritasizlar, - dedilar.

Ang-tang qolgan qizlari yana orqalaridan chopdi:

- Ada, adajon! Axir, Sizni kutib turishibdi. Yetib bormasangiz... bormasangiz, hammasini ochib tash-lashadi!

Pochcha to'xtadilar, yengil bosh silkidilar-u, qaytmadilar:

- Ochganча ochadi, qizim. Namozdan ulug'mas hammasi - bu dunyo tashvishlari ham, hoy-havaslari ham!..

Men qotib qopman: U yoqda tomlarini ochmoqchilar-u, tavba! Yo Sul-tonmurod akamning qaytishiga ishoniyaptilarmi? Bugun u kishi indamasalar, ertaga bu yoqqa kelmaydimi? Sizlar ham boshpana bergansiz, bag'ringizga olgansiz, deb quvsalar-chi bizni?

Qo'rqib ketdim.

Bir mahal o'zimga kelsam, birov orqamdan kelib, bag'riga tortib turibdi. Nuqul boshimni silaydi, ipakdek yumshoq kaftlari yoqyaptiki...

Faqat oyimgina shunday bag'irlariga tortib, jim qolishlari mumkin. Qulog'imning chetiga qaynoq tomchi tushib, titrab ketdim:

- Oyi, o'zingizni bosing, biznikiga kelolmaydilar. Kelsalar ham, ochib ko'rsinlar-chi! Akam nima qilarkin ularni!

- Kelolmaydi, o'g'lim, kelolmaydi. Xudoyim ham yo'l bermaydi! Qaerda bor ekan, yetimlarning boshini silab, bag'riga olgan xonadonni buzsini, to'zitsin degan qonun?! Kelib ko'rsinlaram-chi! - Oyim meni bag'irlaridan chiqarib, yelkamga qoqdilar. - Lekin sen hozir chop. Ularni to'xtat! O'zlari kelyaptilar de! Chumolining ini ham buzilmasin hech zamonda. Bora qol, xolang boyaqish nima qildilar ekan. Uch!

- Xo'p, oyijon, - dedimu oyog'imni qo'lga oldim...

Huvillagan bog'lar yoqalab, toklari allaqachon ko'milgan ishkamlar ichi bilan, ustida donayam bargi qolmagan yalang'och yong'oqzorlar tagi bilan, burganzorlar oralab (har oyoq tashlaganimda tizzamga urilib, burgan urug'lari shuv-shuv sochiladilar), sho'ra o'tlar bosgan o'qariqlardan hatlab o'tib, uchib boryapman-u, nazarimda xolamlarnikigamas, tamomi boshqa yoqqa yugurib ketayotgandekman. Hov anavi - Bo'zsuvdagi eng baland Yassitepaga va yo bo'lmasa, Foziltepaga chiqib bormoqchiman. Chiqib bormoqchiman-da, o'sha akam aytgan ajdodlarimizga o'xshab, olov yoqsam, deymen! Meni ko'rib, tutunimni ko'rib, boshqa tepalarda - Oqtepayu Xirmontepalarda ham olov yoqilsa-da, dushman bosh ko'tardi, ichdan yov chiqdi, deb akamgilarga xabar berilsa! Qani edi, qani edi!.. Ko'zlarim sim-sim yoshlanib, (o'sha tutundanmi va yo boshqa narsadan) kaftlarim-la artganim-artgan. Yo'llariga ko'z tutganim-tutgan. Qani ko'rinsa qolsa akam, akaginam!.. Qani qayta qolsa!

Va yana bir ko'nglim Izzaga qarab chopmoqchi, ko'k bo'rini izlab yurgan Haybat akamni topmoqchi bo'laman. Yuring, u tirik ekan, o'lmagan ekan bo'ri! Bo'zsuvdan chiqib, xolamgilarnikiga tushibdi! To's-to's etayotganmish, chopaqoling, deb qistalang qilsam, shoshirsam...

Ey akalar, akajonlar!

Ichimdan bir nimalar toshib kelyapti! Ko'z oldimni bir tuman qoplab boryapti! Lablarim chetidan sho'rtang tomchilar sizib kiradilar. Ko'z oldim chaplashib ketyapti. Javob bering, qanisiz? Qaerdasiz? Hamma umidim sizdan edi-ku?! Sizlardan edi-ku?!

Ey akajon, Sul-tonmurod akajon! Qaying. Bizlarni kimga tashlab ketmoqdasiz? Eshityapsizmi, xaloskorsiz qol-dik biz!..

Men devor oshib, ishkamlar ichi bilan xolamgilarnikiga bo'zlab kirib borarkanman, hov birdagidek kunbotar tomondan qag'illab-chag'illab, bir qora qayun olamni tutib kela boshladiyu ko'zim tinib, esim og'ib, bog' eshikka suyanib qoldim. Ajabo, tomda hech kim ko'rinmas, ketmon-ketmonda, bel-belda qolgan, mil-tiqli birov Akmal o'risni oldiga solgancha, hovlidan chiqib borar, yalinib-yolborishiga qaramas edi. U akammidi, yigitlarimidi va yo Haybat akammi - hech aj-rata olmasdim. Zag'chalar esa, qiyomat qo'pganday bosib kelar edilar.

XORIJDAN MUJDA (XOTIMA)

Yana nechanchidir marta shaftolilar nozik ado liboslarini ildilar ustlariga. Va nimpushti ro'mollarini o'ynoqi yellardan asrab-avaylab, ohista egildilar: muloyim yuzidan nur yog'ilib turgan mo'ysafid qaynotalari - quyoshga salom qilgani chiqqan kelinday...

Yana nechanchidir marta kungay tepalarda boychechak kuldi va bolakaylarning puchuk burunlaridan o'pich oldi. Anhor yoqalarida ko'z ochgan binafshaxonlar qaqajon qizlarning ko'ksilariga bir yarashib tushdilar. Yana nechanchidir marta horib-tolib, "qur-ey, qur-ey"lab kelayotgan turnalarni quvib, devday-devday bulutlar o'tdilar. Yetolmay, tutolmay ayqashib-uyqashdilar. Qaybirlari yengilib, ko'zyosh to'kdilar, qaybirlari na'ra tortdilar. Ko'kda chol-kampir qaldiroqlarini otib, quvlashar edilar.

Yana bulturgi xazonlarning ostida qo'ziqorin bolaladi. Chuchmoma xumchalab, yuzlarini yomg'ir suvlarida yuvdi.

Qaybir o'ngirda bo'ri bolaladi, ko'kda Tohir-Zuhra jamol ko'rsatdi. Bu sevinchlik xabardan kurtaklaru maysalar tilla isirg'alar takdilar. Sa'valaru popishakxonlar, sariq, qizilbosh ming xil qushchalar yayrab-quvnashga tushdilar.

Yana tolchavkonlar davri o'tdi, tolhushtaklar chalinib bitdi. Qizalokdar tolchiviqlardan sochpopuklar shilib, takdilar. Endi bu yog'i yellarga qoldi. Kuni bilan shaftoli gullarini boshidan sochib, kapalakday uchirib-quvib, zerikkan yellar kechalari bilan tolzorlarda halinchak uchib chiqa boshladilar.

Shunday yoqimli tungi nasimlar tinib, subhi sabolar uyg'onadigan bir pallada balo to'satdan keldi. Ota yurtida zilzila qo'pdi.

Biz bu xabarni yurtdan uzoqda - Farg'onada eshitdik. (Mening xizmatim yuzasidan o'sha yoqlarga ko'chib borib qolgan edik.)

Oyim eshitgan zahotlari hech yerga sig'may, tipirchilab qoldilar.

- Voy, bolaginam, bo'la qol tezroq. Otlanaqol, ketduk. Yurtda shu ahvol, biz bu yoqlarda yuribmizmi? Qishloqning qozisi bo'lguncha, shaharning tozisi bo'l. Ketduk. Ishqilib, biznikilar tinchmikan? Opalarim, tog'alaring esonmikan? Yakkabog'u Kattabog'lar joyi-damikin? - Yana aylanib kelib jovullab, kuyib-pishib qistaydilar: - Shoshma, avval ishxonangga sim qoq, Jo'ra akangdan bil, surishtir...

Sim qoqqunimcha bir yerga yetdilar: "Voy, Toshkanginaga nima bo'bdi, Xudoyimning qahri nimalarga kela qolibdi? Ishqilib o'zining rahmi kelsin, bandalarining g'amini o'zi yesin, o'zi asrasin..."

Xayriyat, sim ulana qoldi: qatnov to'xtab, idorayu ishxonalar berikilmabdi. Qashqar mahallasida tom bosib, ayrim devorlar tashlab yuborganini aytmasa, bizning tomonlar - Qang'liyu Yakkabog'u Kattabog'lar tinch ekan, joyida ekan. Ammo yer notinchmish, vaqti-vaqti bilan oyoq ostidan bir guldirak bosib kelib, siltanib-siltanib turganmish. Har daqiqada asov o'tdek bir ko'tarib tashlashini kutib-qo'rqib o'tirishganmish. Hamma narsa omonatday ko'rinib, odamlar "Astag'firulloh"ni aytib qolishganmish.

Oyim: "Ketduk, Maqsudxo'ja, o'ldirsa ham o'z uyimizga - O'lan to'shagimizga ketduk"lab turib oldilar. O'sha Farg'onada tug'ilgan bijildoq qizim Zilola jaj-ji kaftlarini ochib, har dasturxon tepasida oyimlardan o'rganganini to'tidek takrorlaydi: "Adamlarga uzoq umr bersinla, katta davlat bersinla, yurtimizga eson-omon yetvolayluk!" So'ng sakrab turib, qiqir-qiqir kulgancha chopib, uyni bir aylanib keladi. Va yana xontaxta oddiga cho'k tushib, jajji qo'lchalarini ochadi: "Omin..."

Bilet olib kelmasam bo'lmaskan, deb axiyri otlandim.

Kelsak, hamma narsa joy-joyida. Uyimizning bitta kesagiyam uchmabdi. Bizning Kattabog'larda yorilgan devorlarniyam ko'rmadik. Yuz yillik chaldevorlar ham "munkillaganicha" turibdi. Faqat og'izdagi vahimasi zo'r edi zilzilaning: "To'p otganday gumburlab kelib, bir ko'tarib tashlasa, esxonam chiqib ketibdi-ya! Yo'q, oldin shiftni bir g'ijimlab, toqilarni shaqir-shuqur oborib-opkeldiyu keyin butun boshli uyni pista po'chokday..."

Ishqilib, mana shunaqa gaplar, tekinga sotib olsa bo'ladigan vohmalar.

Qarindoshlar ham tinch, "xudo-oblo" deb o'tirishgan ekan.

Ammo shaharda yuzlab chodir uylar tikilgan, devori yorilib, suvog'i ko'chgan, mo'rasi uchib, taxmoni tashlab yuborgan omonat uylardan hamma ko'chirib chiqarilmoqda edi. Kecha hech kim nominiyam eshitmagan zil-zilashunoslar bugun eng mo'tabar kishilar. Buning ustiga, hukumat boshliqlarining zudlik bilan uchib kelgani, Toshkent qayta quriladigan bo'lib, Butunittifoq qurilish maydoniga aylangani... hammasidan ham oshib tushdi keyin bilsak. Zilzila ham yuta olmagan bolalik yurtimizni ajdahodek komiga tortaman deb turgan boshqa narsa borakan. Sezmagan ekanmiz avvaliga. Do'st do'stning boshiga ish tushganda keladi-da, deb tasanno aytaveribmiz. Ko'-o'p do'lvor ekanmiz, oshnajo'lar.

Yigirma kunlar o'tib, qayta bir kelsam, qay ko'z bilan ko'rib, qay quloqlarim bilan eshitayki, Kattabog'dan - ota-bobolarimizning makonidan ko'chadigan bo'libmiz. Bir biz emas, Chilonzoru Novza, Cho'lpon-otayu Xirmontepa, Murjumanu Tuvak - barchasi ko'chayotgan emish. Qurbaqaobodu Qang'lidan yangi joy ko'r-satilganmish. Sho'ring qurg'ur, o'zbek. Do'mda tura olarmidi! Umri uchastka qurish bilan o'tib ketsa, ketadiki, o'la qolsa rozi bo'lmas.

Kelsam, zanjiday xunuk bir qora xotin (Habira deyishdi otini keyin hayiqibgina. Qarang, o'zbek ekan shuyam) shlyapali, oq yoqali kazo-kazo va qizil shapkalilarni uyma-uy boshlab yuribdi. Ko'chishga, joyni bo'shatib berishga qo'l qo'ydirib olyapti. Yig'i-sig'i qilganlarga uning po'pisasini ko'rsangiz.

- Nega ko'zyosh qilasiz?! Oyizsi mahriga tushibdimi bu yer?! Yer hukumatniki, xohlasa, beradi, xohlasa qaytib olavuradi!

Yoqmasa ana, do'mga chiqasiz! Suvga siyib o'tiravurasiz...

- Voy o'lay, kofir bo'lib-a? - deydi uy egasi.

- Bo'lmasa, ko'rsatgan joyni ming'irlamay olavuring. Nima, buzvoladiganim yo'q? Ana, tanka turibdi, soddalar turibdi, aytaymi, birpasda yumaloq-yostiqlik qilib berishsinmi? Dod-voy qimiysizmi?

- Yo'q-yo'q, Xudo xayringizni bersin, o'zimiz... - deydi uy sohibi.

- Ammo-lekin shu oxirgisi bo'lsin, kampir. Ertagayam kirib yurmay. Meni bilasiz-a?

- Voy, bilmay o'libmizmi...

Ana o'sha o'zimizdan chiqqan qora Habira bosh bo'lib, boyagi mavzeldagi hamma xonadonlarni yangi joylarga - rostakam qurbaqaobodlarga sadoqat bilan ko'chirib berdi. Ammo uning shuncha xizmatlari nimaga taqdirlanmay qoldi, Toshkentning biror ko'rinarli yeriga o'sha xotonga nega biron haykal qo'yishmadi, hech tushuna olmayman. Aftidan el og'zida yura-digan "Qo-och, Habira kevotti" degan latifa monelik qilgan-ov.

Ishqilib, nima bo'lsa-bo'ldi, jannatday joylarimiz o'stin-ustun bo'lib, soyu tepalarimizdan, tutzoru nokzoru yong'oqzorlarimizdan, qovunpolizu bedapoyalarimizdan (Qaysi yozig'imiz uchun?) nishon ham qolmadi. Hammasini ya'juj-ma'jujdan ham o'tadigan temir yalmog'iz yutdi-yubordi.

O'sha - Olmazordan tushib kelgan aravamiz to'ntarilay degan yo'lni ham, ko'priknini ham, toqilarimiz oqqan Izzani ham, chopiqchi qizlar nomahram ko'zlardan berkinib cho'miladigan xilvat joyni ham - barcha-barchasini boy derdik, Sulaymon payg'ambardan qolgan Barzan singari otlar uchib yuradigan soylar, o't-loqlar, bedapoyalar, hatto o'sha mashhur ot ko'milgan Jargacha yo'qlikka ko'chdi.

Bo'zsuv bo'yidagi u yerto'lalar, Kattabog' ichidagi izi yo'qolgan qarorgoh, ikki bor yor-yor aytib uzatilib borib, ikki bor ham baxtini topmagan Marg'u kennoyim yo'qolgan o'sha Tegirmon ko'chayu tegirmon boshidagi azim qora tollar, Tegirmonning o'zi ham yo'qolib, bir ertakka aylandi-qoldi. O'sha biz mol boqqan soylarning chimlarigina umrboqiy ekan: ular ko'chirib ketilib, Qizil maydonu Tuproqqo'rg'ondagi "Najot qal'asi" deb atalmish binoning atroflariga yotqizildi, qolgani toshqo'rg'onlar tagida qolib ketdi manguta.

Oллоh o'zining kalomida, agar biz istasak, sizning o'ringizga boshqa qavmni keltirib qo'yamiz, bu bizga osondir, deydi. Avvaldan ogohlantirib qo'ygan ekan-u, biz o'zimiz gumrohlik qilgan ekanmiz. Akam, Marg'u kennoyimni, Bahridin akamni, avvalroq Abdurahim eshon pochchani va yana bir guruh kishilarni shu Yakkabog'u Kattabog'dan chiqarib yuborib, keyin ofatini yuborgani-chi? Xuddi Nuh, Lut qavmlari ustiga balo yog'dirishdan oldin ko'rgan tadoriki kabi emasmi bu? Yanayam bizni O'zi asrabdi, qaysi savoblarimiz, toat-ibodatlarimiz evaziga karam qilibdi - bilmayman.

Men bularni tasavvur ham etmagan edim avval!

Hamma qatori yangi berilgan joyga yig'lab-siqtab, bir amallab boshpana tiklab yurgan kezlarim ishxonaga bir odam qo'ng'iroq qilib qoldi.

- Assalomu alaykum. Ma'zur tutgaysiz. O'zlari Maqsudxo'ja janoblarimi? - dedi u simning narigi tomonidan shirin bir o'zbakiy talaffuzda.

- Ha, menman, - dedim kimligini bilolmay.

- Mahmudxo'ja o'g'illari-a? - deya yanada aniqlashtirib oldi u.

- Topdingiz.

- Yakkabog'lik ekansizlar. Keyin Kattabog'ga ko'chmishsizlar...

- Shunday-shunday, - dedim taajjublanib. Uning bu savollari xotiralarimning allaqaysi sahifalarini titkilab yubordi va yuragim hapriqa boshladi.

- Volidangiz... hayotmilar? Adashmasam, ismi-shariflari Salomxon moshinachi edi?

- Alhamdulillah, hayotlar, - dedim hayratim battar oshib.

- Poshsha opangiz, Oyposhshaxon, Hidoyxon, Habiraxon, Jo'raxon, Muborakxon atamli xolalaringiz...

Bu yog'ini men davom ettirdim:

- Qo'ldoshxo'ja, Usmonxo'ja, Kenjoxo'ja degan tog'alarim...

- Hech kimni unutmadilarmi, birodari aziz? - U tili-talaffuzidan ham bu yerlik odamga o'xshamasdi. Lekin hammani tanishi, bilishi qiziq.

- Bu omon qaytganlari. Yana urushda bedarak ketgan tog'amiz bo'lguchi edilar. Islom tog'amiz... - Shunday dedimu birdan ich-ichimdan bir hayajon bosib keldi.

- Tog'am... tirikmilar? Siz...

- Yo'q, men... shunday nom-nishonsiz ketganlar yana bormi, demoqchi edim?

Kimdan mujda keltirdi ekan? Akamdanmikan? Men battar hovliqib qoldim.

- Siz kimni so'rayapsiz? Sultonmurod akamnimi yo Olim akamni?

- Olim? Kim u?

- Sultonmurod akamning shunday ukasi bo'lguchi edi... melisa o'qishiga kirgan... bir ko'rinish... shu ko'yi yo'q bo'lib ketdi. Qo'ldosh

tog'am u haqda bironta ma'lumot topolmadilar keyin. (Shunda ham Nusrat pochcha surishtirib yurgan edilar.)

- Yo'q, birodar, eshitmagan ekanman, - dedi u tan olib. - Ammo akasi haqida...

- Siz... siz u kishini bilarmi edingiz?

- Oz-moz. Ammo dovrug'ini ko'-o'p eshitganmiz, - dedi u faxrlanib.

- Qaerda, ayting. U tirikmi o'zi? Marg'u kennoyim-chi? - dedim yutoqib.

U negadir jim qoldi.

- Nega indamaysiz? U kishi tirikmilar o'zi?

- Men o'sha yoqdan mujda keltirgan bir elchiman, xolos, birodari aziz. Mayli desangiz, uchrashaylik.

- Jon-jon deyma-ku.

- Sizni ko'p izladim, - dedi u yana. - U mavzelar yo'kdikka ko'chganidan bexabar ekanmiz biz.

- Ho'-o'v, - dedim ichlarim kuyib, tutunim o'rlab. - Nimasini aytasiz, biz yo'qotmagan nima qoldi o'zi?.. Hammamiz tariqday sochilib ketdik-ku. Bir musht qilib yig'adigan mard qani endi?!

- Unday demang, siz tufayli rishtalar ulansa, shoyad topishib ketsangizlar... - dedi u taskin berib.

- Lekin siz kimdan mujda keltirganingizni... aytmadingiz hali, - dedim men qistab.

- Ko'rishaylik, keyin... Men sizni, Maqsudxo'ja janoblari, ishxonangiz ro'parasida, favvora oldida kutsam...

- Hoziroq chiqaman!

- Shoshmang, birodari aziz. Agar mumkin bo'lsa, bir qo'lingizga gazet olvolingiz. Shuni-da, tizzangizga urib-urib tursangiz... men tanib borsam...

- Maylin...

Xayollarim ming yoqlarga borib keladi: kim bo'lishi mumkin? Kimdan mujda keltirgan ekan? Akamdan bo'lsa, simdayoq aytmasmi edi? Nimaga andisha saqlab turibdi? Kimga tegishli, kim yuborgan odam o'zi u? Yana hamma xolalarim, tog'alarimni bilishi qiziq?

Ko'rib lol qoldim. To'g'rirog'i, u meni tanib, kelib so'rashdi.

- Sizmi, menida intizorlik-la kutayotgan bitikchi birodar? - dedi u labining chetida shirin jilmayib turib. U turk fuqarolariga o'xshab bashang kiyingan, kalta soqol-mo'ylov qo'ygan, yoshiga nisbatan ancha tetik, yuzi ham nurlikkina, toza o'zbek lahjasida so'zlaguvchi xorijlik edi.

- Biz ota yurtga mehmonmiz. Xayriyat uchratdim.

Topmay-la ketamanmi deb qo'rqan edim, - dedi u yanayam sidqidildan.

- Xush kelibsiz, ola ketay bugun hovlimizga. Mehmonim bo'ling. Bir kecha otamlashaylik, - dedim men ham yaqin tortib.

- Nasib. Kelarmiz bir gal. Bu kech hamrohlar-la Marg'ilona jo'namoqni ahd etib eduk. Aybga buyurmaysiz, - dedi u qo'limni issiq qisib.

Biz favvora atrofini aylanib o'tib, gulu gulzorlar oralab ketdik.

- Sizni "Aziz inson" atalmish bitikingizdan, ona yurtingiz tavsiflaridan tanishibdi ular. O'sha moshinachi Salom kennoyining o'g'illaridan bo'lak kishi bunday yozmaydi, deyishdi.

- Kim, Marg'u kennoyimmi? - dedim yalt etib yuziga qarab.

- Topdingiz, - dedi mehmon taajjublanib va hayratlanib. - Kamina o'sha Marg'uba otindan duoi salomlar keltirdim.

- Shuni aytmaysizmi? - Men mehmonni shart quchoqlab olib, gir aylantira ketdim. So'ng qo'llariga yopishib, yuzlarimga surtdim. -

Bizni nechog'li sevin-tirganingizni bilsangiz edi, afandim! Ruxsat eting, bo'ylaringizdan bo'ylay. Siz bizga aziz odamlardan sevinchli mujdalar keltiribsiz. Boshimizni ko'kka yetkazdingiz. Endi sizni hovlimizga olib ketaman. Yo'q demang, afandim. Oyim eshitsalar, xafa bo'ladilar.

U ham erib ketib, namlanib kelgan ko'zlariga ro'molchasini bosdi:

- Chindanda Xudovandi Karimning dargohi cheksiz, inoyati cheksiz. O'zi inoyat etmasa, biz qanday ko'rishar eduk, topishar eduk? O'ziga cheksiz hamdlar bo'lsin, - deya men bilan qaytadan tanishishga tushdi. - Biz Jiddaga borib qolgan o'zbeklarmiz. Men Sodiqxon Umarxon o'g'illariman. Tujjorman. Siza qadrdon kishilar ila ko'p yaqinmiz. Ular Qashqardan kelishgan.

- Kim, Sultonmurod akammi? - dedim u kishi nimanidir aytishni istihola etayotganini sezib. U javobni orqaga surgani sayin ichim qizib boryapti.

- Yo'q, Maqsudxo'ja janoblari. Mendan berib yuborishgan omonat boya kamina ismi-shariflarini aytgan bonu ila Bahriddinxo'jadandur. Biz u kishi ila og'a-inidekmiz...

- Kim, kim bilan dedingiz? - Bu xabar meni tamoman gangitib yubordi.

- Bahriddinxo'ja. Siz u kishini tanishingiz kerak, Maqsudxo'ja janoblari. Xolavachchangiz...

Har narsani kutsam kutgandirman, lekin bunaqa xabarni kutmagan edim! Marg'u kennoyimning akam bilan qochib ketib, birinchi nikohidagi kuyovini shuncha yildan keyin topishi, u bilan turishi... aqlga sig'maydigan narsa edi. Balki birga turmas ham...

- Shoshmang, kennoyim u kishiga turmushga... chiqqanmi?

- Ha, Maqsudxo'ja janoblari. Ko'pdan berli, Bahriddinxo'ja Qashqardan qaytgandan berli. Oldi o'g'illari er yetdi axir...

- Men hech narsaga tushunolmayapman. Meni kechirasiz-u, bunday bo'lishi aklga sig'maydi.

- Nega axir, Maqsudxo'ja janoblari?

- Chunki, chunki... bilasizmi, u kishini nikoh kechasi oblochilar bosib, o'g'rilar otib qo'yishgan. Akam o'ligini topdirib, janoza

ochtirgan. Tushunyapsizmi, janoza ochilib, ko'mib kelishgan...

- Nima dedingiz, ko'mib kelishgan dedingizmi? - Bu gaplarim mehmonga ham ta'sir etib, yuzlari yorishib keldi. So'ng nimanidir aniq eslab, ilkis boshini ko'tarib, muloyim jilmaydi. - Ha, Maqsudxo'ja janoblari, menda bir uchini eshitganim bor bu tarixni.

Bahriddinxo'ja aytib edi bir.

- Aytib edi?..

- Ha-da. - U mayin jilmaygancha, menga tushuntirishga chog'landi: - O'sha "ovlovchi" deganingizdan qochib borishayotib nuqul jo'rasi: "Men endi o'ldim! Tutdi - olib ketadi. Yetimning holi shu ekan, o'rtoq", dermish-da, yig'larmish. Yig'larmish-da, o'ldim

o'rtoq, dermish.

- Xo'sh-xo'sh.

- Shunda ular - ikki o'rtoq engil almashibdilar. U kuyovlik to'nini kiyibdi, bu...

- Yo Oллоh! - dedim boshimni changallab va shu turganini ko'yi turib qoldim. Notanish mehmon atrofimda girgittan bo'lar,

yelkamdan suyab, kuraklarimni silab:

- Sizga ne vo'ldi? Hoy, Mahmudxo'ja o'g'illari, o'zingizni tuting, - deb yupatar, taskin berar edi.

Mening ko'z oldimdan esa, sochini yulib "Bahriddinim"lab ostona mushtlab o'tirgan Asol xolam, qizil alvon o'ralgan tobut ko'tarib kelayotgan akalarim, uning oldidagi Qo'qon aravaga chandib tashlangan kallasi xumdek, o'zi chala tug'ilgan boladek Parpi bebaxtlar yasov tortib boryapti. Mozorotga qo'yib kelayotganimizda yo'-limizni to'sgan askarlarmi-ey, Bo'zsuv bo'ylariga tashlangan desantchilarmi-ey, gir-gir aylanib o'taveradi, o'taveradi. Goh o'zim qoraxat ko'tarib ketayotgan bo'laman, goh ko'z oldimda hov o'shandagidek bo'lib ko'kish nur turib oladi. Sekingina yo'lak chetidagi chim to'shamaga cho'kib qo'yaqoldim.

- Tuf-a-tuf-a, qo'rqitib yubordingiz-ku, mezbon janoblari. Meni kechirasiz, ma'zur tutgaysiz, nojo'ya xabar yetkazgan bo'lsam...

- Undaymas, undaymas. Siz meni ma'zur tuting. Tashvishga qo'ydim sizni, - dedim uzrxohlik bilan.- Boyaqish Asol xolam, kech tushdi deguncha nomini atab chaqirganlari-chaqirgan edi, ko'ngillari sezarkanmi, tavba.

- U kishi... hayotmilar? - dedi mehmon hayiqibgina.

Men bosh chayqadim:

- Afsuski, zor-zor yig'lab, eslaridan ayrilib, qazo qilib ketdilar.

- Xudovandi Karim rahmatiga olgan bo'lsin ul mushfiqani, - deb duo qildi u.

Men esam, shu o'tirganim ko'yi, qarshimda cho'kkalagan xorijlik mehmonga hayiqibgina, so'rashgada tilim bormay, savolchan tikildim: qani o'sha maktub, bersangiz beraqoling...

U ham tushundi va qo'yin cho'ntagidan oppoq xorijiy xatg'ilof chiqarib uzatdi:

- Mana, hammasi shunda bitilgan. Sizga atalgan omonatni eson-omon yetkazganimdan Ollohga shukrlar aytaman, - dedi va iltijoli tikildi. - Faqat bir iltimos, Mahmudxo'ja o'g'illari...

- Ayting.

- Buni uya yetib, so'ng ochgaysiz.

- Nechun?

- Shunisi ma'qul. Harqalay... Rozi bo'lib, bosh silkidim.

- Rahmat, - dedi u.

- Sizga ham rahmat. Shundan shu yoqqa izlab, qidirib-la kelibsiz. Biz uchun aziz kishilar haqda mujdalar yetkazdingiz, - dedim men sal o'zimga kelib.

So'ng xayrlashib, ajrashdik. Men ishxonamga, u esa musofirxonasiga ketdi. Men qaytyapmanu ichim g'urmishlab ketyapti, qachon ochaman, o'qiyman deb. Mehmon nega bunday dedi? Faqat hovliga yetvolib o'qiydigan xatmi bu? Unda (xunuk desammi, dahshatli desammi, balki judayam xursandchilik ato etadigan) qanday mujda bor ekan?

Hayajondan qo'llarim qaltirab ketyapti. Eng salqin, ichkari uyga kirvolganman. Darpardalarni ochvoray desam, uydagilar tinchlikmi deb qolishlari mumkin. Ustiga-ustak, oyim, ayolim nima-nima, kimdan ekan, deb holi-jonimga qo'ymasliklari tayin.

Men esa, o'spirinlik davrimdan tanish, u ko'z ochib ko'rgan va endilikda butunlay yo'kdikka ko'chgan diyorimiz shohidlari, men uchun eng aziz kishilar - akam, kennoyim haqida uzokdan bir mujda keltirgan xatni yeru ko'kka ishonmay, uni qanday ocharimni bilmay turibman.

Xatg'ilofning o'zi bir g'aroyib. Oppoq, yiltiroq qog'ozdan cho'zinchoqroq qilib, xuddi taqinchoqlar soladigan qutichaning eni, bo'yiday etib, xatg'ilof yasalgan. Ustiga bir chiroyli, nozik tamg'alar - uch kunlik yangi tuqqan oyu allaqanday g'uj yulduzlar burji tushirilgan. Bosma arab yozuvlari ham xuddi naqshday xatg'ilofni bezab, ko'rk bo'lib turibdi. Ammo men omi uni qani endi o'qiy olsam, tishim o'tsa. Ota-bobolarimizdan qolgan bu harflarning har nuqtasi ortida yashirib yotgan olam-olam ma'nolardan bebahra tubsiz jarga itqitib yuborilgan bolakayday nochor-notavon turar edim.

Birdan yuragimda hadik uyg'onib, o'zimni yanayam o'jiz-notavon his etdim: mujdaxat ham shu yozuvda bo'lsa-chi?..

Bir qaychi topib, xatg'ilofning chekkasini qirqidim. Ichidan bir varaq xat (Vo darig', chindanam men kutgan yozuvda ekan!) va yana tumorxat (xat ichidagi xat) chiqdi.

Ikkisini boshqa-boshqa odam yozgandek. Kimlardan ekan? O'zimni koyirga so'z topolmay turibman. Eh, biz sho'rpeshonalar.

O'zimizni ziyoli sanasak-da, otalarimiz yozuvini o'qiy olmasak! Men umrimda birinchi marta boshqacha bir alam tuydim. Qattiq alam. Men uchun eng aziz kishilar ishonib, xabar topganlaridan boshlari ko'kka yetib bir mujda yo'llashsa-yu, men uni o'qiy olmay o'tirsam!.. Omi odamday, notavonday... Shu qadar biz gumroh bo'ldikmi? Boshqa yoqqa, boshqa qavmga shu qadar ergashib ketdikmi, tomirlarimizni unudtikmi?

Nima qilsam ekan? Kimga o'qitaman endi? Balki birov bilib, birov bilmasligi lozim bo'lgan gaplardir. Maxfyidir. Yolg'iz o'zimga atalgandir?

Unday desam, shuni olsam ham olaman, olmasam ham olaman deb kennoyimga yetisholmagan, o'ziga atalgan chimildikdarga kirolmagan Bahriddin akamning topi-lishi-chi? Shuncha yildan keyin daragi chiqadi-yu... (Hov, bu dunyoning ishlari teskariligini ko'ring! Akam oshnasining qotillarini topguncha nimalar qilmab edi?! Parpi bebaxtni ne ko'ylarga solmab edi!) demak, o'lgani ham bekor, orqasidan kelgan qora xat ham bekor ekan-da! Shunday bo'lib chiqadimi? O'nda, unda men pandavaqi nima qilib bir uya qamalvolib o'tiribman? Uning xabarini yashirib o'tiribman?! Vaholanki, oyimlarning oldilariga chopsam arziydi-ku. Suyunchilab qarindoshlarga chiqsam arziydi-ku! Axir hazilakam voqeami bu?! Axir o'sha nikoh xudoning nazdida ham, aslida ham bekor bo'lmagan ekan-ku! Kennoyim, mening aziz Marg'u kennoyim o'sha birinchi nikohidagi odam bilan topishibdi-ku!

Buni hammadan burun oyimlarga aytmasam kimga aytaman! Chopdim!

Eshik-derazalarini yopib, pardalarini tushirib olgan uyimdan otilib chiqsam, oyim pastdagi salqin ayvonchamizda farishtadekkina bo'lib, (shashadoka ro'mollarini boshlariga tashlasalaroq shunday oq-oppoq bo'lib, oyparchadek bo'lib qoladilar) o'sha qalin muqovali ulug' kitobni hijjalab o'qib o'tiribdilar. Vallazina mo'minina...

Qiroatlari quloqlarimga moydek yoqib g'alati tortib ketdim. Va o'zim ajab bir xotirjam tortib qoldim.

Darvoqe, oyimning o'zlari-chi? Tatalab bo'lsa-da, o'qib berishlari mumkin-ku, axir. Bu xabarni eshitib bir quvonsinlar, bir quvonsinlar, bir yerlarga yetib duo qilsinlar. Zinadan sakradim.

- Suyunchi bering, oy! Kimdan xat kelibdi! - dedim o'sha uzun xatg'ilofni boshim uzra silkiy-silkiy oldilariga yugurdim.

Yaxshiyam, hammasini birdan aytmaganim! Bahriddin akam tirik demaganim! Yuraklarini yorib yuborarmi edim!

Oyim tizzalaridagi kitobni yopmay ham ko'zoynaklari tepasidan ajablanib qaradilar. Xursandligimni ko'rib, jilmaydilar.

- Suyunchilikka yetkazsin hammani ham, ilohim. Kimdan deding?

Men endi aytavursam bo'ladi deb o'ylab:

- Rahmatli Asol xolamning... - dedim-u, u yog'ini aytolmay qoldim. Asrandilari deyimni ham, arzandalari deyimni ham bilmasdim. Bahridin akam deyimga-ku yuragim dov bermayotir. Yotig'i bilan aytishga so'z qidirib topolmasdim. Ammo oyim anglab, birdan shoshib qoldilar.

- Voy, pochchadanmi? Mukarram qori akadan-a?

- Yo'q, oyi. U kishining o'g'illaridan. O'sha to'yida bedarak ketgan-chi...

- Bahridindan-a? - oyim azza-bazza quloqlarini ishqab, ko'zoynaklarini qo'llariga oldilar. - Ulgani, qora xatlar kelgani bekor ekanmi?

- Bekor ekan, oyi! Tirik ekanlar u kishi! Mana, qarang xat berib yuboribdilar, - dedim ichimga sig'dirolmay axiyri.

- Yo qodir Olloh!! Opam tan olmaganlaricha bor ekanmi?! O'lgunlaricha ham nomini tildan qo'ymaganlaricha bor ekanmi?

Asrayman desa, qirq yil qirg'in bo'lsa asrarkanda Xudoyimning o'zi... - deb turib birdan tizzalaridagi kitobni qo'shqo'llab ko'tarib unga yuzlarini bosganicha jim qoldilar. Bilmadim, uning sahifalariyu oyatlarini ko'zlariga to'tiyo qilib surtarmidilar, o'parmidilar. Yo Ollohga shukronalar aytib duolar qilarmidilar. O'ziga yig'lab-siqtarmidilar. Lekin miq etib tovushlari chiqmas, mana, hozir yelkalari silkinib-silkinib yig'lab yuboradiganday edilar. Men ham qarshilarida cho'kkalaganicha qolganman, "oyi-oyi"lab yupatarimni ham, tinchlantirarimni ham bilmayman. Ammo yuragim to'lib borayotir, ko'zlarimdan sitilib oqmaguncha yengil tortmaydigandekman.

Nihoyat oyim yuzlarini u ulug' kitobdan olib, yenglarini mijjalarga bosdilaru o'krab yubordilar.

- O, opaginam, avliyo ekansiz-u, biz bilmabmiz! Chirog'bonim qaydasan deb chaqirardingiz, Siz chaqirsangiz biz qo'shilishib bo'zlabmiz-u, yoningizga kirib chaqirishmabmiz. U esa tirik ekan. Tirik turib xabarini berolmayotgan ekan, boyaqish, - deb yig'lar edilar, busiz ham qisiq tortib ketgan ko'zlaridan du-villab yoshlar oqib kelaverar, tinaqolmas edi.

- Qani, qaelarni vatan tutib qolgan ekan, o'qi, bolam, - dedilar axiyri ko'z yoshlarini kaftlari bilan artib.

- Tishim o'tsa koshki edi, oyi, - dedim dardimni yorib.

- Ha-a, darvoqe, u harfda ekanmi? - dedilar oyim va xatni avaylab qo'llariga olib, yuz-ko'zlariga surta boshladilar. - Xudo-oy, ko'rsatganingga shukr. Tirik ekanin bildirganingga shukr. Go'rlarida tinch yotadigan bo'ptilar opam ham...

- O'qib ko'ring, oyi, mana, ko'zoynagingiz. Balki qiyin emasdir sizga, - deb qistay boshladim alohal.

Oyim ko'zoynaklarini olishga oldilar, taqishga takdilar, ra'yimni qaytarolmayin ko'z yugurtirdilar-u, ammo o'qishga sabrlari chidamadi.

- Yo'q, bolam, koshki mening yuragim ilgarigiday bo'lsa. Ko'tarmaydi. Yaxshisi, tog'ashta opchiq. Yoki pochchangga olib bor. Ular har holda erkak kishi. Diydasu ham, yuragi ham dosh beradi. Bizga ishonma. Bizning ichimiz tugab, suvratimiz qolgan.

- Unday demang, oyi. Shunday o'tirganingizga ming shukrlar. Siz bizning katta davlatimiz-ku, - deb yubordim men.

- Rahmat, bolam, rohatlaringni ko'rsatganiga shukr. O'ziga shukr. Buni o'shalarga obboraqol.

- Yaxshi, oyi. Tog'amni topsam tog'amga, bo'lmasa pochchaga olib boraman, - dedim ularni tinchlantirib. Ammo tashqariga chiqib turib qoldim. Qo'ldosh tog'amlarnikiga o'tishga negadir hech ko'nglim bo'lmadi. Negaki, u kishi... bu tarixni yaxshi bilmay (u paytda urushda yurganlarini unutib qo'yadilar, shekilli), hamisha Sultonmurod akamni yomonotliq qilib keladilar: "Pochcha, oqlamang uni! Sayoq yurib ketgan uningiz! Oxiri ham zotimizga yarashadigan ish qilib ketmadi. Birovning nikohidagi o'jizani yo'ldan urib ketish, Xudovandi Karim ham kechirmaydigan gunoh!" deb gaplarini ma'qullaganlari-ma'qullagan. Bu xatni opchiqsam, bir karra ensalari qotsa kerak. Yaxshisi... yo'lakay bozor-o'char qilaman-da, Beshqayrag'ochga (o'sha sobiq Qurbaqaobodga) o'tib, Nusrat pochchani ziyorat qilib kelaman. Anchadan buyon borganim yo'q, xursand bo'ladilar. Keyin, u kishi tushunadilar ham...

Borsam, pochcha, ikkala yengleri shimarig'liq, qo'llarida bo'yni uzun, jo'mragi undan uzun eski mis obdasta (hoynahoy Bobur zamonidan qolgan. O'zlariyam: "Ona tomondan Boburshohning tog'alariga borib tutashamiz. Boburshohning tilla banddi qilichini oyimgilar sandiqlarida asraguvchi edilar, sho'rolarning kov-kovida olib chiqib ketishgan, deb aytib o'tirardilar)... O'sha qadim obdasta, tahorat olib, hovlida kelayotgan ekanlar, ko'rib, yuzlari oy balqiganday yorishib ketdi. U kishining yuzlari shunaqa, kamdan-kam taqvodor odamlarga nasib etadigan bir nur ichdan jilolanib turgani-turgan. O'zlarining halim tortib ketganlari-chi, avvalgidanam shirinsuxan bo'lib qolganlari-chi? Oyim, bu hammasi namozdan, taqvodan, deydilar. Agar habash ham Nusrat pochchadek taqvodor bo'lolsa, uning ham yuzi shunaqa ko'hlik tortib ketar edi, deb qo'yadilar.

- O'-o', qarog'im, qarog'im. Tomirimning tomiri, Mahmudxo'janing o'choqboni. Kel, bo'tam, kel. O'zi kiprigim uchib turuvdi, kimni ko'rarkanman, deb turuvdim. Salomxon eson-omonmi, bolalaring tinchmi, o'zing Toshkentga qaytib, ishlarga joylashib ketdingmi? Hay, yaxshi yo'qlab kepsan-da. Balli, balli, ota o'g'il, - deya alqay ketdilar. - Hoy, Sanobar, qara, kim kepti, bizni yo'qlab. He-ey, bola-ya, bozor qilib, narsa ko'tarib yurishing nimasi? Biz diydor quli-miz, oqibat qulimiz. Qarichilik, o'zimiz yetolmaymiz, sog'inamizki, u yog'i yo'q.

Ichkaridan farishtaday bo'lib, yuzlaridan o'sha-o'sha muloyimlik, nur yog'ilib, xolam chiqib keldilar.

- I-i, uni qaranglar, singilginamning yolg'izginasi, ishongan bog'i, suyangan tog'i-ku. Voy xolaginang o'rgilsin. Bo'ylaringga qo'qindiq. Qanday shamollar uchira qoldi. Salomxon yaxshimi o'zi, nimaga opkelavurmading oyingni?..

Dasturxon yoyilib, choy kelguncha pochcha ham asr namozini o'qib chiqdilar. Biz salom berib, o'rnimizdan turdik. O' kishi harsillab-pishillab alik oldilar:

- Va alaykum assalom va rohmatallohi va baroka-tuh. Ko'-o'p yaxshi ish qipsanda kelib. Biz ham g'animatimiz, shunaqa yo'qlab turinglar. Uzilishib ketmaysizlar keyin. Balli-balli. Qadamlaringga hasa-not. Qani, ol, manavi noz-ne'matlardan. Endi bizniki bo'ldi. Qisinma, yetkazganiga shukr.

So'ng xolam turib, uy ishlariga unay ketgach, pochcha menga ma'noli nazar tashlab olib:

- Xo'-o'sh, nechuk, qanday shamollar uchirdi? Qang'lilarda tinchlikmi? - dedilar.

Mavridi kelganini anglab, uyatligina bosh silkidim:

- Shu ichimga sig'dirolmay-sig'dirolmay... Sizdan bo'lak kimga ham bordim, deb kelavurdim.

- Yaxshilik xabarmi, ishqilib? - dedilar pochcha sal xavotirlanib.

- Yaxshilik ham gapmi, suyunchilik!

- Yo Olloh! Suyunchilikka yetkazsin hammaniyam. Ko'zim behuda uchmagan ekan unda.

Qari odamning yuragini yorib yubormayin, deb gapni uzoqdan boshladim:

- Yo'qotgan odamlarimizning daragi chiqibdi, pochcha. Ishonasizmi, shunga?

- Kimlarni aytmoqdasan, Maqsudxo'ja? Qaerdan olding bu gapni? - U kishi xumdek boshlarini chayqab, o'zlariga bir yarashgan soqollarini barmoqlari bilan damo-dam tarab qo'ydilar.
- Xorijda qolib ketgan qarindoshlarimiz... mujda yo'llashibdi.
Pochcha hovliqib qoldilar.
- Subhonalloh! Kim ekan? Sul-tonmurodmi?
- Yo'q, Bahriddin akam.
- Astag'firulloh! Qaysi Bahriddin? Mukarram pochchaning...
- Ha-ha, Asol xolamning yolg'iz dilbandlari...
- U axir...
- Yo'q, o'lganiyam bekor ekan, qora xatiyam, pochcha.
- Yo qodir Olloh! La havla va la quvvata... O'zi asragan ekanmi? - Pochcha hayratlanib, mamnun tortib, yuzimga tikildilar.
- Asragan ekan, mana maktublari. - Men qo'yin cho'ntagimdan mujdaxatni olmoqqa tutindim. - Ochig'i, bunday yozuvlarga tishim o'tmay, sizga olib kelavurdim, pochcha.
Men u kishiga yolg'iz varaqdagi xatni uzatib, tumorchasini har ehtimolga qarshi g'ilofida qoldirdim.
- Hay-hay, ko'p tabarruk yerlardan, payg'ambarimiz yurtlaridan mozor bosib kelgan ekan-ku. Ko'zga to'tiyo qilsa arziydi-ku! - Pochcha azza-bazza ko'zlariga surtib, o'pib qo'yidilar-da, birdan xolamni chaqirishga tushdilar. - Hoy, Sanobar, qanisan, qaerdasan? Bu yoqqa qara, axir. Jiyaningni xabari chiqibdi. Xatlar kelibdi.
- Kim dediyiz? - deb xolam kirib keldilaru eshitib ko'zyosh qilib o'tirib qoldilar. - Voy, opam boyaqish, shu kunlarga yetolmay ketdilarimi?! Tirik ekanini eshitolmay ketdilarimi? Eshitsalar qay yerlarga yetmas edilar...
Pochcha xolamni zo'rg'a yupatib, xatni o'qishga tutundilar.
"Bismillahir rohmanir rohiym.

Uzo-oq va jondanda yaqin ota yurtga, biz musofirdiydalar cho'ng sog'ingan u azizlarga yetib ma'lum bo'lsinkim, bizkim azza va jalla Tangri taoloning marhamatiyu inoyati-la bu muazzam mamlakatning muborak Jidda shahrida istiqomat qilayotirmiz. Asli tavallud yurtimiz Toshkandi musulmonobodda Yakkabog', Qang'li o'tli jannat manzillar bor edikim, biz o'shal diyorda er yetib, padari buzrukvorimiz hamda volidai mehribonimiz, qon-qardoshlar bag'rida o'ynab-kulib yurgan insonlar erdik. Xudovandi Karim taqdirda yozgani shul erkan, qirg'inbarot janggohlardanda omon chiqordi, ko'-o'p sargardonliklar so'ngida, shukrkim, shul yurtda qo'nim toptirdi..."

- Moshalloh-moshalloh! O'zi asrayman desa, shu ekan-da, qirq yil qirg'in bo'lsa asrarkan-da, - dedilar pochcha qudrati ilohiyga iymon keltirib. - Chindanda barcha hikmatlar yolg'iz O'ziga xosdir. Bizga nima ham berilibdi. Parpi otib qo'yganman desa, ishonib-la o'tiribmiz. Janoza ochib, ko'mib-la, kelib yuribmiz. Astag'firulloh, astag'firulloh, Mirhomid qora xat keldi desa, ungayam bir ishonibmiz. Bu esa, u yoqda ekan. Yo qudratingdan!..

Pochcha nafas rostlab olib, ko'zoynakni to'g'irlab qo'yidilar-da, yana o'qishga beriddilar:

"Ukaginam, jigarginam Maqsudxo'ja. Sen haqingda kelinoying ko'-o'p yodlaydi. Asol oyimni, Salom xolamlarni eslab, ko'-o'p esi ketadi. (Ho'-o'y, ko'r taqdir-a, Asol opam kimning dardida kuyib ado bo'ptilar, deb qo'yidilar pochcha.) U jannatiy bog'lar, soylarni, bolaligimiz kechgan ma'volarni qaytib bir ko'rsagu so'ng jon taslim etib, omonatini topshirsak, mayli edi. Bearmon ketardik. Ammo qaytarga qani yo'l, siz azizlarning diydoringizga yetarga qani imkon?"

Balki Ollohim tirik qoldirgani, nikohimdagi Marg'ubabonuni qayta yetkazgani evaziga sizlar ila diydorni qiyomatga qoldirgandir. Yana Tangri o'zi yaxshiroq bilgay..."

- Vooh! - deb yubordilar pochcha. - O'sha kelin, kashmiri kelin borib-kelib, qochib-quvib, Sul-tonmurodgamas o'ziga nasib etibdimi? Ye qodir Olloh! Bu ne sinoat?!

"Sening yozgan bitigingdagi u tanish tasvirlar, aziz yurtimizning tiniq suvrat-chizgilaridan tanib qoldik. Sen jimitdek bolakay, Salom xolamning qorako'z kenjasi - pakana parini yozuvingdan, Qang'liyu Achchi tasvirlaridan, qissangdagi odamlardan tanib oldik. Taniqli odam, katta yozuvchi yetishibsan, deb o'zimiz haqda shu mujdani yo'lladik. Shoyad sen o'z jigarimiz bo'lib chiqsang. Ertayu kech duoi joningni qilib o'tiribmiz.

Zora u mushtipargina volidamizdan, xolalarimu tog'alarimdan biron mujda ololsam, deb Tangri taologa munojotlar qilib qolgayman.

Shuncha mushkullarimizni oson qilgan yo Olloh!

Rizqimizni keng, qalblarimizni o'zingga muhabbatli qilib qo'ygan yo Olloh!

Bu judolik manzilida o'zingning eng sabrli bandalaring qatoriga qo'shib, inoyatlaringni darig' tutmagan yo Olloh! Bu iltijolarimizni o'zing qabul ayla! Jigarlarimizning daragini o'zing chiqarib turibsan, ular bilan uzulgan rishtalarnida bog'lashga, yuz ko'rishga o'zing yo'l ber, ijobatlar qil. Diydorni oxiratga qoldirma.

Assalomu alaykum tug'ushqonlarim!

Mujdaxatga aziz kelinoyingning nomasini ham qo'shdim. Undan sizga ko'pdan-ko'p duoi salomlar ila, Bahriddinxo'ja Mukarramxo'ja o'g'li.

Jidda, safar oyi".

- Ho'-o'y, darig'! Biz yitdi-ketdi deb yurganlarning xabari chiqib turganda Sul-tonmurod jigarimiz qaylarda qoldi ekan?..

Tegirmonga tushsa butun chiqadigan yigit nom-nishon bermasa-ya o'zidan. Axir, qancha yil, qancha zamon kechyapti. Yomon bo'ldi, yomon. - Pochcha bir ta'sirlanib ketsalar, to'xtatib bo'lmasdi: bosh chayqab-chayqab, engah silab-silab bir gapni takrorlayverar, "ho'-o'y"lab qolar edilar. - Ho'-o'y, yomon bo'ldi, yomon. Uyat bo'ldi, uyat, uvol ketdi, uvol...
- Shoshmang, pochcha, bu yoqda yana bittasi bor xatning. Balki undan bir darak chiqib qolar, - dedim tumor xatchani uzatib: -

Mana.

U kishi xatchani olishga olib, taraddudlanib qoldilar:

- Darvoqe, bu kashmiri kelinimizdanmi? U Jiddada qaydan paydo bo'lib qolibdi ayol boshi bilan?

Birov bilan ketib, birinchi nikohidagi eri bilan topishib tursa, juda qiziq-ku! Astag'firulloh!

- O'qing, o'qib ko'ring. Balki biron gap aytar, - dedim shoshirib.

- Vallohi a'lam, Xudo haqqi, hech narsa tushunolmadim. Nima bu - taqdiridan - azal yozmishdan qochib bo'lmas, deganlari shu bo'lsa kerak-da. - Pochcha kattakon kaftlari bilan ot yuzlarini ishqab, soqollarini tutamlab-silab qo'yidilar-da, tumor xatni yozdilar.

"Bismillohir rohmanir rohiym.

Bizni yo'qotib qo'yib, Xudovandi Karimdan mujdalar so'rab yotgan siz azizlarga duoi salomlarimni yo'llagayman.

Aziz qaynim, qaynixonim. Bu menman: o'shal yeru ko'kka ishonmagan Marg'u kelinbuvingizman. Olloh bizning rizqu nasibamizni shul yoqlarga sochgan ekan, o'ziga mingdan-ming adad shukrlar bo'lsin, shul shaharda istiqomat etib turibmiz.

Qaynim, qaynixonim, siz tushungaysiz. Bir og'iz so'zimdan ne demagimni yolg'iz siz anglab yetgaysiz. "Qul lan yusinbano illa ma kitaballohu!" - "Olloh taolo taqdir aylagan narsagina bizga nasib bo'lg'ay", ortig'i ortiq ekan.

U kishi (akaginangiz)... ko'zlari ochiq ketdi. O'z yurtimizda yetmagan tilaklariga yetay deganda Sharqiy Turkiston ozodligini ko'rib-ko'rmay shahid ketmak bor ekan taqdirilarida. Marshal Sog'unuy tarafdorlariga kelib qo'shilgan edilar. Bahridin akangiz tirik ekanlarini eshitgach, yolg'iz umidlari Olloh yo'lida jihod etib, shahid ketishu jannatiga doxil bo'lish bo'lib qoldi. O'zini o'tga urgan parvonadek, kofirlar to'dasiga tashlana-tashlana, oxiri niyatga yetibdilar. Bir zamonlar Yoqubbeklar shu yo'l, shu dovonlardan oshib kelib, Qashqarda davlat qurgan, deb aytar edilar. Tarixni qara, taqdirni qara, endi biz kelyapmiz, derdilar. Yo'llari ham, niyatlari ham bir chiqdi. Go'rlari ham (Ilohim, jannat bog'lariga ochilgan bir darchadek nurga to'lsin) o'sha yoqda qoldi, qaynixonim. Asray olmadik u kishini. Men boyaqishni la'natlamagaysiz. Faqat yolg'iz o'tinchlari: "Seni jannatda topmoqni Xudovandi Karimdan so'ragayman, Marg'u", debdilar u zot, shu bo'libdi o'tinchlari..."

Men o'zimni zo'rg'a bosib o'tiribman. Ichimda: "Yo Xudo, uning niyatlarini mustajob qilgaysan" deb o'krab yuborgudekman. "Men baxtiqaroni kechirgaysizlar, kechirgaysizlar. Shunday qarchig'aydek odam, sarkarda bo'ladurgan zot edilar! U yurtlarga lozim ermasmidi o'zlari?! Nega sig'madilar o'z yurtlariga?!"

Qayniginam, qaynixonim! Mening sizga yolg'iz o'tinchim - u judolik manzilida kechgan ko'p voqealardan siz xabardorsiz, unchamuncha haqiqatni bilasiz, to'g'risini ham bilib qo'ysangiz, yomon bo'lmaydi. O'sha qiz uzatib ketishayotib, men yo'qolgan kecha... O'zi bir kitob. Avvalo, Olloh kechirsin. Qolavursa, oyim va yana boshqalar. O'sha topda ko'zimga akangizdan, unga bergan va'damdan bo'lak hech narsa ko'rinmab edi. O'sha ko'rligimga borib, tushgan tuzog'imni ko'rsangiz!.. O'sha titroq, o'sha yurak hovuchlab chopishda Tegirmonboshida kutib turgan otliqni akangizning elchilari fahmlab, otlariga mingasha qolibman-u, keyingi sarsonlik, talvasa, qoch-qoch, quv-quvlarini ko'rsangiz!..

Akangizning elchilaridan ilgariroq otni qamchilaganlar, ko'priki buzib qo'yib, meni tuzog'iga tushirishga urinib yotganlar bor ekan, bilmabman. Xayriyat, Xudo bir asradi. Chaman akangiz Toyir elchi bilan yetib kelib, Akmal o'risning changalidan qutqarib ketdi. Bo'lmasa, o'lgan ekanman, sharmandai sharmisor bo'lgan ekanman.

Aytmoqchi, Chaman akangiz yurtga qaytish tadorikida yurgan edilar. Ko'rinmay-la qoldilar. Yetib oldilarmikan?..

Assalomu alaykum va rohmatallohi va barokatuh!"

Ko'zimda jiqqa yosh bilan, turib ketarimni ham, bosh ko'tarib pochchaga qararimni ham bilmayman. Lekin ichim kuyib ketyapti, yonib ketyapti. Negadir shunday xo'rlik bosib kelyaptiki...

- Chaman degani?.. - Pochcha ko'zimga qarab, ahvolimni tushunib, bir daqiqa jim qoldilar, o'zlari ham ta'sirlanib, og'ir qo'zg'alib qo'ydilar. So'ng yana so'radilar: - Chaman degani o'sha ayrilmas do'stimi? Uyam birga ekanmi?

- O'sha, pochcha, o'sha... - "O'sha nobakor" demoqchi bo'ldim-u, aytolmadim.

- Sen uni allaqachon qaytgan deb o'ylaysanmi? - dedilar pochcha hayratlanib. - Kelsa, ko'rinish bersa kerak edi-ku.

- Xat yetib kelgan... tirik odam qorasini ko'rsatib qo'ymapti-ku, - dedim shuncha paytdan beri bir-rov xabar bermaganidan jig'ibiyronim chiqib.

Pochcha bosh chayqadilar:

- Unday dema, dunyoda gumondan yomon narsa yo'q.

- Odamga alam qiladi-da, - dedim o'zimni bosolmay.

- Yo'q, bu alamingni ichingga yut. Sultonmurodning yozug'i shunday bo'lsa, unda nima ayb? - dedilar pochcha,

- U sababday... ko'rineradi menga, - dedim ichimdagini yashirolmay.

- Unida sababchi qilib qo'ygan kim? Ollohning o'zi!

- Ulug' gunohga qolganini bilmaydimi?

- Balki bilar ham. Yolg'izlik qilgan, qo'li kalta qolgandir. Ich-etini yeb yurgandir. Birovga oson tutib bo'ladimi, jiyan? Kelsa, eshitarmiz, bilarmiz.

Men "qaydam, bilmadim-ov" degim keldi-yu, jim qola qoldim.

Pochcha xatni xontaxta ustiga qo'yib, o'rnatib o'tirdilar-da:

- Ey Xudovandi Karim! O'zing buyuksan, o'zing mavlosan. Biz ojizmiz, sen qodirsan, biz nodonmiz, sen donosan va o'zing barcha g'aybdan voqifsan. Shu topda dilimizdan o'tib, ko'nglimizdan kechib turgan o'ylardan tortib, har neki sodir bo'lsa, o'zing xabardorsan. O'sha jigarbandimiz, tomirimizning tomirib'ib" sening quling, otlariga tortib jihodga chiqibdi, sen yuborgan, biz tanlagan din uchunda kurashib, sharafli o'lim topibdi, ilohim, bilib-bilmay qilgan gunohlarini mag'firat etib, u dunyosini o'zing yorlaqagin. Jannatingning eng yuqori ko'shklaridan ato etgin. Bu dunyoda ko'rmagan ro'shnolliklariga, ushalmagan niyatlariga o'zing yetkazgin, Va shu inoyatingga musharraf bo'lganini ko'rmokdikni biz qullaringgada nasib etgin. Omin, yo Arhamar Rohimiyn, - deya yuzlariga fотиha tortib, ketidan uning ruhi pokiga bag'ishlab, qiroat-la tilovat boshlab yubordilar.

Pochcha berilib, borliqlarini baxshida etib tilovat qilyaptilaru, nazarimda, atrofimdagi butun borliq omin deya qo'llab turgandek.

Shu dam quloqlarim ostida allatovur bir qur-qur tovushlari bilan ko'z oldimdan qanotlari oq jujunday yarqirab, o'shal qushlar - hov anuv oq qushlar ohista-ohista suzib o'ta boshladilar.

Tavba, Chindanda g'alati. O'sha bolaligim kechgan joylarga yaqin borib qoldim deguncha yoxud ota qadrdonlarimu aziz qarindoshlarimni uchratdim deguncha, bu oq qushlar mening olamimga charx urib kirib kela boshlaydilar. Hov o'sha oydin kechada, o'sha xaroba qo'rg'on ustidan pastlab kelgan oq turnalardek, atrofini sambit gullar tutib yotgan tashlandiq hovuzimizga qo'r to'kkani kabi.

O'zimni esa, tushuniksiz bir mung qamrab oladi-da, ich-ichimdan xo'rsiniq-la bir sog'inch hislari toshib chiqaveradi, toshib chiqaveradi. O'zim o'sha diyorga shu qushlar-la uchib ketgim kelaveradi, kelaveradi. Necha kungachayam hech yerga sig'may yuraman. Nima bu? Nimadan ayon berib, gir aylanmoqdalar bu oq qushlar?

Ana, ular okdan ham oq qanotlarini yoyib, ohista aylangancha, o'sha, qadim makonga qo'nmoqchi bo'lib pastlab keldilar-u, yana osmonlab ketdilar. Begonasirab "qur-qur"lab borayotgan bu ovozlarni allavaqtga qadar eshitib turaman. Nima bu? Nimadan darak bermoqdalar ular?..

Axiyri pochchadan so'rashga jur'at etdim.

- Ho'-o'y, bo'tam-a! Shuncha voqealar kechadiyu o'tganlarning ruhi tinch yotadimi?! Shunday manzillarimizdan ayrilib, ulardan

hatto azon tovushlari eshitilmay qoladi-yu, ruhlar chirqiramaydimi?! Biz jimmiz, bo'tam, ammo o'tganlarning ruhi notinch... Tavba. Qodir Olloh solih bandalari uchun biz yo'qotgan diyordardanda ming chandon ko'rimliroq bir diyori - jannatini tayyorlab qo'yganini bilib turib ham bundan kecholmaymiz. Ko'nikolmaymiz hech. Nega? Bu dunyo bor-yo'g'i judolik diyori ekanini tan olgimiz kelmaydi. Mangu diyorga yetsakkina unutamizmi? Yana Olloh o'zi yaxshiroq bilgay. Chindan bu dunyoni boshqarib turgan ulug' kuch bor-ki... Uyga kelsam, keliningiz yangi gap topib o'tiribdi. Notanish bir odam meni so'roqlab kelganmish: "Qani bizning pakana pari, uyda o'tiradimi-yo'qmi?!" deganmish dabdurustdan.

Yuragim jiz etib, hovliqa boshladi.

- Kutib-kutib ketdi. Shuncha qistasak, kirmadi. Mavridi bilan bir kelarman, dedi.
- Shoshma, ko'rinishi qanday?.. Shu atroflikmi - Saida yelkasini qisib, tushuntirishga urindi.
- Qanday desam, o'rta yashar, istarasi issiqqina, o'zini erkin tutyapti. Lekin bu atrofning odami emas. Faqat...
- Nima faqat?
- Faqat boshidagi oq kepkasini olmasa, o'zbek demaysiz...
- Oq kepka?!
- Ha, oq, yap-yangi kepka.
- Yo qudratingdan! Ohimiz Tangriga yetib, o'zi ijobat etmoqdami? Chaman aka-ku!.. - dedim do'ppimni osmonga otgudek bo'lib. Qora duxobaga injular qadalgandek mag'rib osmonida... yopiray!.. hov o'sha kelin yo'qolgan kechadagidek bir haftalik yangi oy balqib, tilla tojdek yonib-yaraqlab ko'zni olar, haybatli bir zot nim tabassum-la qarab turganga o'xshar edi.
- Alhamdulillah, alhamdulillah, o'zingga ming qatla shukrlar, - deya oldim, xolos.

Birinchi kitob bitdi.

NAJOT FARISHTASI

Ikkinchi kitobdan ilk bob

Sultonmurodning o'tinchlari

Biz tomonlarda shunday naql bor: bitta o'zbek - O'zbek, ikkita o'zbek - bedana, uchta o'zbek - choyxona. Farg'onadan diltortar og'aynilar kelishgan ekan, shuncha uyga qistasam, bo'lmadi. Axiyri, yaqinroq bir choyxonaga osh buyurdik. Ikki soatgina otamlashib qaytsam, bu yoqda rosa ilhaq bo'lib kutishayotgan ekan.

- Voy, adasi-ey, yurishingizam bor bo'lsin. Qayoqlarda edingiz? - dedi Saida ostonadanoq.
- Tinchlikmi? - deya kovshandozga qaradim, ammo begona oyoq kiyim ko'rinmasdi.
- O'sha odam yana yo'qlab keldi.

- Qaysi odam?.. Oq kepkami?

Xotinim bosh silkidi.

- Faqat bu gal kepkasini tashlab...

- Qani? Ahmadxo'ja qaerda edi, bolalaring qaerda edi? Uyga opkirib, birpas kutmaydimi bularing! Shunday mehmonni jo'nattirib yuboradimi? Qanday...

- Voy, qiziqsiz-a, o'libmiz-da. Abdullaxo'jangiz qo'yarda-qo'ymay olib kirdi. Bitta osh qildik. O'rningizni bilintirmay olib o'tirdi shuncha. Siz kelavermagach... manavi omonatlarni tashlab ketibdi, - Saida jimitdek "mezbonqog'oz" bilan silliq, lekin sal sarg'ayinqiragan xatg'ilofni tokchadan olib uzatdi. - Bu hafta albatta topib, uchrar emishsiz.

Xatni ko'rib, yuragim bir g'alati orziqib tushdi. Xuddi uning ichida menga atalgan bitik emas, bir g'alati nur bordayin edi. Men hayiqib, lekin apil-tapil ochishga kirishdim.

Xatg'ilof ancha uringan bo'lsa ham, ichidagi xat yangi, xuddi kecha bitilgandek edi. Men uni butun vujudim-la simirib, tik turganchayoq o'qiy ketdim:

"Jondan aziz ukajonim, Maqsud, bu besh kunlik omonat dunyoni sizlarga tashlab keta turib, u ota yurtini, sizlarni, xolalarimu pochchalarimu tog'alarimni, bu dunyodan o'tib ketgan barcha mahalladoshlarni esladim. Va Ulug'xo'jaboylar sulolasining bir umidli novdasi bo'lgan senga shu omonat gaplarimni qoldirgim keldi. Men bularni sendan bo'lak kimga ham aytay. Otam - padari buzrukvorimizni nima qilishgan, o'zing bilasan. Men o'g'il bo'lib, farzand bo'lib, mozorlarini topib, bir kalima Qur'on tilovat qilishga yaray olmadim. To'g'rirog'i, yaratmadilar. Volidai mehribonimizni ham o'zing bilasan, na bizning baxtimizni, na bir ro'shnolikni ko'rdilar. Otamizning ketidan kuyib o'tib ketdilar. Yozug'lari shu ekan... Munis-mushfiq xolalarimning diydorlarini ko'rmoq esa, qiyomatga qolyapti, ukaginam. Men buni yaxshi anglab turibman. Yo'q, Maqsud, akam bu kurash, bu jihodga tushib, qaytmas yo'lgab'ab" mangu diyorga ketayotganidan afsus-nadomatda ekan, deb o'ylama. Aksincha! Olloh roziligidan umidvorlik tufayli ko'nglimda bir yorug'lik, bir xotirjamlik tuymoqdaman, bu ham Yaratgan egamning menga buyuk marhamati, ne'matidir. O', Maqsud-Maqsudgina ukam, sen bilsang edi, men botgan gunohlar yukining og'irligini va hozir shu tog'dek yukdan xalos bo'lib, musaffo bo'lib, pardek, parqudek yengil tortib yotganimni. Hammaga ham nasib qilsin-chi shunday intiho! Shunday xotirjamlik. Tashqarida dunyo oppoq oqlikka ko'milib yotibdiyu, nazarimda, atrofning bahoriy nasimlar bilan allaqanday mushku anbarlar hidi gurkirab kelayotganday. Bilmasam, bu jannatiy iforlar qaydan kelmoqda...

Maqsud, qo'y, o'zingni bos. Yig'lama, yig'lab kuzatma meni. Men senga armonlarimnimas, o'z xatoyu gunohlarimni to'kmoqdaman. Yolg'iz Olloh va o'zimgina biladigan gunohlarimni senga ishonib aytmoqdaman. Sen uzoqqa boradurgan yigitsan avlodimizda, tushunib olarsan deb o'ylayman. Yurtimizda kimlar meni qaroqchi deb atar, kimlar so'nggi bosmachi, deb tavqi la'nat tamg'asini bosib ham qo'ygandir. Balki, balki ba'zilar bironing to'yini buzib, nikohidagi ayolini olib qochgan nobakor deb bilar. Lekin men, Xudovandi Karimga ming qatla shukrlarki, u gunohi azimga botib ulgurmadim. Mening gunohim boshqa narsada: bu dunyoda har neki Ollohning izni-irodasisiz bo'lmasligini unutib, Bahridin oshnamning qasosini olmaganimcha qo'ymayman, deb qasam ichganim va shu niyat bilan bir bandaga bilib-bilmay zulm o'tkazib qo'yganimdir! Men sultonlar ham jur'at etolmaydigan bir jazoni inson bolasiga, Xudo o'zi qo'shqo'llab urib qo'ygan kimsaga ravo ko'rib, yomon adashibman endi bilsam! U aslida ham beayb bo'lib chiqdi, Maqsud! Bahridin akang chindan hayot ekan!

Ollohning inoyatini qaraki, u urushga ketib, asirga tushib, o'shanaqasi xorijga o'tib ketgan ekan. Ilgariroq, hali yurtdan chiqmay turib, buni eshitsam, balki jonim tovonimdan chiqib-la ketarmidi! Lekin hozir sen balki tushunmassan, tasavvur etolmassan, lekin men sevindim bir hisobda.

Marg'u kennoyingni Tangri taolo menga emas, men tufayli birinchi nikohidagi kishisiga erishtirishni taqdir etgan ekan, shungayam shukrlar aytaman. Shuning uchun ham Marg'u kennoyingni Bahridinga yetkazishlarini vasiyat etdim. Meni o'ldiga chiqarishlarini... so'radim (Olloh o'zi kechirsin). Hali ham asrasa, yolg'iz Olloh asrashi mumkin. Shu Ollohim Marg'u kennoyingning o'rniga uningdek oy yuzli, bir farishtadek afiyfani yetkazdi, ustimda parvona qilib qo'yibdiki, men uni ba'zan farishtami, inson bolasimi, ajrata olmay qolaman. Ha, u tufayli balki omon qolarman, balki nogiron. Lekin bu kunimdan shahidlik sharobini totib ketganim afzalmidi deb o'ylab ketaman ba'zan. Bu o'tkinchi dunyo, uning hoy-havaslarini muhabbat qo'yishga arzimlasligini sen ham hov keyin anglab yetgaysan, ukam.

Xudovandi Karim o'zining haq dinini quvvatlantiradigan va adolatli saltanatlar quradigan Temurdek, Boburdek, Yoqubbekdek zotlarni necha yuz yilda bir chiqaradi, degan gapni rahmatli adamizdan eshitib edim. Ne baxtki, shunday zotlarga o'xshash (balki men adashayotgandirman, balki chindanda bu buyuk baxtdir) Sog'uniy janoblarning lashkarlariga qo'shilishga urinib, jihod etish mengada nasib etdi.

Darvoqe, bir kecha o'shal aziz yurtimizga sig'may, qochib-quvib, Bo'zsvu bo'yariyu Kattabog' etaklarini makon tutib yurgan mahallarimiz bir sir, bir sun'i g'ayb sodir bo'ldiki, hali-hali unutulmayman. Men Bahridin do'stimning qasosini oldim, o'ligini topib, janozasini ochdirib, chin uyiga topshirib, ruhi poki oldida burchimni o'tadim, deb yurganim bir paytda undan qora xat kelib, men o'zimni tamom yo'qotib, bir piri murshid, bir maslahatgo'y istab qolgan kezlarimda ro'y berdi shu. Kechalari azbaroyi uyqum qochib-qochib ketar edi. Va bir kun yarim kechada qora chiroq yorug'ida mudrab o'tirarkanman, eshik o'rniga tutilgan adyolning bir cheti asta ko'tarilib, yerto'laga oppoq kiyimdagidagi padari buzrukvorimiz kirib keldilar va (Tavba, men turay deymen-u, turolmayman, qaddimni ko'tara olmayman. Salom beray deymen-u, ovozim chiqmaydi. Ammo ichim to'lib, ko'zimdan duvillab yosh kelyaptiki, naryog'i yo'q) o'sha yerda to'xtab: "Bo'tam, bunaqa mushkul damlarda yolg'iz kimga nolayu iltijo qilmoqlarini bilmaysizmi? Unutdingizmi?" deb turibdilar. Aniqtiniq eshitdim. Padari buzrukvorimizning halimdan-halim, xotirjamdan-xotirjam ovozlari edi...

Seskanib ko'zimni ochsam, yerto'lada jimjitlik. Qora chiroq osuda yonib turibdi. Faqat adyolning bir cheti... xuddi hozirgina birov chiqib ketganday sezilar-sezilmas silkinar, tiq etgan tovush eshitilmas edi. Yo, qudratingdan, o'zi belgi bermoqda-ku, dedim-da, tura solib, tashqariga chiqib, tahorat olib keldim va ikki rakat hojat namoz o'qib, Parvardigori Olamga nolayu iltijo qila ketdim. Yig'ladim, siqtadim. O'zim bildimu yolg'iz Olloh bildi. Keyin yotib uxlab qolibman. Bir mahal tushimda... karvon bilan dovon oshib, kunchiqar mamlakatiga ketayotgan emishmiz. Yonimda - shu tanishlar. Yo qudratingdan! O'zi yo'l ko'rsatdi-ya, O'zi. Mana endi, Bahridinning ham daragi chiqib turibdi! Marg'uba esa... birinchi nikohidagi kishisiga yetishib turibdi! Endi ham Ollohning borligiyu qudratiga ishonmay ko'r-chi, Maqsud! Biz boshimizga qilich kelsa-da, Ollohdan tonmasak, o'shandagina ishimiz o'nglangay!

Shunday qilib, biz tog' oralig'idagi bu mamlakatga yetib keldik. Ollohning o'zi bizni Sog'uniy janoblari qo'l ostidagi lashkarga yetishish niyatida yig'ilayotganlar safiga qo'shdi.

Shukrki, Tangritog' atalmish bu mamlakatni ozod ko'rmoq niyatini dilimga soldi. Gunohlarimni yuvishga, huzuriga yorug' yuz bilan borishga imkon berdi Olloh. Men hayotimdan nolimayman. Faqat, Maqsud, ukaginam, eshit, senga ikkitagina rijoim bor. O'zing bilasan, u yoqlarda mening bir tomirim, bir qorindan talashib tushgan jigargo'sham qolmoqda. U nobakorning taqdiri nima bo'lganini bilolmay ketamanmi, deb qo'rqaman. U qattiq adashdi, ammo shunda ham gunohini Yaratgandan so'rab olaman. Balki Olloh o'shanday fosiqlar tufaylidan dinimizni bu yerda, Qashqaru boshqa mamlakatlarda quvvatlantirmoqchidir vallohu a'lam. Har qalay, sen uni top, yerning tagida bo'lsa-da, qidirib top. Topib, mening vasiyatimni yetkaz. Umri bevaqt xazon bo'lgan padarimiz va validamiz ruhi poklari haqqi-hurmati, esini yig'ib olsin. Ularga la'nat keltirguncha, Xudodan qo'rqsin. Tavbaning kechi yo'q. Kimning zurriyatlarimiz, bilsin! Mo'min bo'lib tug'ilib, kofir bo'lib o'tmoqdan O'zi asrasin, O'zi..."

Toliqib, charchagan shekilli shu yerda uzilish bor. Darvoqe siyoh ham tugab, bu yog'i boshqa rangdagi siyohda bitilgan.

"Yana bir iltimosim, Parpining oldiga o'tgaysan. Agar maktubim kechikib tegsa, bolalariga uchragaysan va mening uzrimni yetkazgaysan, uka. Men uni ko'p o'yladim: men kim edimki, unga do'zax azobini totdirdim?! Adolatmi qildim? Rost, u nobakor, u ablah Bahridinni o'ldirmagan esa-da, boshqani nohaq o'ldirgan, talagan. Ammo men kimman?! Endi o'sha voqealarni eslasam, titrab-qaqshay boshlayman. Sendan iltijoim, ularga (Haybatga ham) bu xabarni yetkaz. Bahridin hayot ekanini va uzilgan nikoh rishtalari tiklanajagini ayt. Ollohning xohishi shu bo'ldi. Kechirolsa, kechirsin.

Va nihoyat, sen bir vaqtlar so'ragan narsa - padarimizning kitoblari o'sha joyda, o'zing bilgan qayrag'ochli yolg'iz mozorotga ko'milgan.

Xatni Chaman akang yozib oldi. Senga yetib borish-bormasi endi unga bog'liq. Men seni g'oyibona quchib, Ollohimdan beaded marhamatlar tilab qolaman. Ot bosmagan joylarni toy bossin, ilohim. Vaqti kelib, namozlaringda duoi tilovatlar qilib, ruhimni shod etaringdan umidvorman, Maqsud.

Alhamdulillah robbil olamiyn.

Akang Sultonmuroddan deb bilursen. Darvoqe, aziz xolajonlarim, mo'tabar tog'alarimu pochchalarimga mening so'nggi duoi salomimni yetkazgil. Sultonmurod otli bir tomiringiz Ulug'xo'ja buvasining yo'lidan ketdi. Olloh nasib etsa, shahidlikka erishgay, degil. Yana. O'sha o'zing bilgan qoratoshlik Turg'un chochol biz bilan. Ollohning chevarligini ko'rki, bizni shu jangohda topishtirib, u qiyomat qarzini uzdi. Meni jang maydonidan u olib chiqibdi. Uyidagilarga xabarini berib qo'yarsan".

Yo qodir Olloh!

Ko'pdan bedarak ketgan kishilarimdan ketma-ket bunday mujdalar kelgay deb o'ylabmi edim?

Qolaversa, bu mujdagina emas, akamning o'tinchlari ham-ku menga. Men uni ado etmoq niyatida balki bir kun kelib, shu tarixni bir kitob etarman ham. Uzrini Parpi bebaxtning o'sha ko'hlik xotini, kokil qo'ygan (albatta, hozir er yetgan) o'g'ilchasiga yetkazarman ham. Hech yerdan daragi chiqmagan Olim akamni-da, yerning tagidan bo'lsa ham toparman, omonatini aytarman ham. Ammo Barzani ham, muhabbati ham o'ziga buyurmagan Haybat akamga-chi? Bu uzr, bu mujdalarni qanday yetkazay? U o'sha yangi tug'ilgan oy tilla tojday yarqirab ko'rinish, so'ng botib ketgan kechening o'zidayoq, hali to'yxonada mash'alalar yonib bitmayoq Marg'u kennoyimdan ajrab qolganini eshitib, qo'shtig'ini ko'tarib chiqib ketganicha... uyga qaytmagan bo'lsa?.. Ko'k bo'rini izlab yurib, axiyri topib, qo'lga tushirganida, nimadir bo'lib, o'sha Cho'milishdagi ko'prik yoqasida, o'sha Marg'u kennoyimni o'zi kutishni yaxshi ko'rgan Jimittepa ustida... O'zini-o'zi otganmi, birov otib ketganmi haligacha bilolmagan bo'lsak... U qirg'in urush ham, oblochilarning quv-quvlari, u sarson-sargardonliklar ham u muqaddas nikoh rishtalarini uzolmaganini men unga qanday bildiray?..

* **This is not registered version of TotalDocConverter**

Aytmoqchi, negadir maktubga sana qo'yilmagan, manzil ham ko'rsatilmagan edi. Negaligini tushunolmadim. Qolaversa, bir haftaning ichida meni topsin, deb ketibdi u elchi. Nega?

O'zi shuncha payt yo'q bo'lib ketib, endi qayoqqa shoshadi?

Va nihoyat, aslida o'zi kim... Chaman aka deganimiz?

U kunchiqar mamlakatdagi ulug' jihodning ishtirokchisi necha yillar uy qamog'ida o'tirganida bu voqealarning shohidi Chaman aka qaerda edi? Hibsdamidi yoki xorijda? Endi qaerdan yuz ko'rsatib qoldi?

Men uchun aziz kishilarning so'nggi taqdiri haqda u nima biladi?

Darvoqe, men o'zim-chi? Nimani ham bilaman...

AvvalgiIII- qismB Keyingi